


UZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

M.YA. ABDUL-AZALOVA

ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARI



TOSHKENT – 2018

UO‘K: 004.9:336.741.225

KBK: 65.262.6

A 15

A 15. M.Ya. Abdul-Azalova. Elektron to‘lov tizimlari: T.: «Aloqachi», 2018, 144 bet.

ISBN 978–9943–5486-0-2

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va islohot qilish sharoitida erkin fikrlovchi, yuqori malakali yosh raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlatning strategik maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakatning oliy o‘quv yurtlari oldiga qo‘yilgan «Kadrlarni tayyorlashning milliy dasturi»da ilgari surilgan vazifalar asosida o‘quv-uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqish va nashr qilish talab etiladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmaning maqsadi bo‘lib «Elektron to‘lov tizimlari» kursidan amaliy ishlarni bajarish bo‘yicha asosiy talablarni belgilash hisoblanadi.

UO‘K: 004.9:336.741.225

KBK: 65.262.6

Taqrizchilar:

- O‘. Hayitmatov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Ekonometrika” kafedrasida dotsenti;
- M.Yu. Haydarova – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti “Informatika” kafedrasida
dotsenti, t.f.n.

TATU o‘quv-uslubiy Kengashining qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978–9943–5486-0-2

© «Aloqachi» nashriyoti, 2018.

MUNDARIJA

Ma'ruza 1. Elektron to'lov tizimlari haqida umumiy tushunchalar. To'lov tizimlari tarixi. To'lov usullari. Elektron to'lov tizimlarining tasniflari.	4
Ma'ruza 2. O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan bank to'lov tizimlari. Pochta o'tkazmalari. Telegraf o'tkazmalari.	25
Ma'ruza 3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Elektron to'lov tizimi». Banklararo elektron to'lov tizimiga ulanish. Ma'lumotlar almashinish usullari.	32
Ma'ruza 4. Elektron naqd pul o'tkazish tizimlari. Western Union to'lov tizimi. Anelik to'lov tizimi. Pochta o'tkazmalari.....	45
Ma'ruza 5. Elektron to'lov tizimida xavfsizlik masallari. Shifrlash usullari. Sinxron va assinxron algoritmlar.	51
Ma'ruza 6. Internetdagi ba'zi to'lov tizimlari. Web money to'lov tizimi. Yandeks Dengi to'lov tizimi. InInit to'lov tizimi. Assistant to'lov tizimi.	58
Ma'ruza 7. Elektron koshelyoklar. Elektron koshelyoklardan foydalanish. Elektron koshelekda to'lovlar o'tish texnologiyasi.	74
Ma'ruza 8. Servis byuro tizimlari. Servis byuro tizimlarida to'lovlar o'tish texnologiyasi. Servis byuro tizimlarida kliring masalalari.....	80
Ma'ruza 9. Xalqaro SWIFT «Elektron to'lov tizimi». SWIFT to'lov tizimining tashkil topishi. SWIFT to'lov tizimida to'lovlarning o'tish. Ma'lumotlar almashinuvi. Ma'lumotlar kodlari... ..	89
Ma'ruza 10. CyberPlat to'lov tizimi. Tizimda to'lovlarni amalga oshirish. Tizimga ulanish. Ma'lumotlar almashinish usullari.	99
Ma'ruza 11. DUET to'lov tizimi. To'lovlarni amalga oshirish. Tizimga ulanish. Ma'lumotlar almashinish.	101
Ma'ruza 12. Mikroprotessorli kartochka asosida to'lov tizimini tashkil etish. Plastik kartochkalar tarixi. Plastik kartalar turlari.	106
Debet to'lovlarning amalga oshirish. Kredet to'lovlarni amalga oshirish.	108
Muhokama savollari.....	112
Glossariy.....	113
Test savollari	115
Foydalanilgan adabiyotlar.....	141

Ma'ruza 1. Elektron to'lovlar to'g'risida umumiy tushunchalar, texnologiyalar va tizimlar.

Elektron to'lov tizimlari (ETT) to'g'risida umumiy tushunchalar

Elektron to'lov tizimi – bu umumiy to'lov tizimlarining bir qo'rinishi bo'lib, elektron to'lovlarni tarmoq yoki chip orqali transaksiya (ingl – transaction, lot. transactio – kelishuv, shartnoma) operatsiyasini amalga oshiradi. Elektron pullar – elektron to'lovlarning asosi sifatida pul, tovar va xizmatlar muomalasini faollashtirilishiga katta ta'sir o'tkazadi.

1980 yillarda – muomalaga ilk bor magnit va debet kartalar kiritilib, fiat (naqd) pullar elektron tizimga o'tkazila boshlandi.

1990 yillardan boshlab elektron to'lov umumiy to'lov tizimining jiddiy elementiga aylanib, pul miqdorini o'zida saqlovchi smart-kartalar muomalaga kiritildi. Magnit va smart-kartalar naqd pullarni to'liq almashtirmagan bo'lsa-da, kartalardagi pul miqdori sezilarli darajada ko'paya boshladi. Elektor to'lovlar pul muomalasidagi xarajatlarni kamaytirishda, kartalar egalariga tezkorlik, qulaylik va anonimlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etdi.

2000-yillarga kelib elektron pullar elektron tijoratda eng asosiy rolni bajarishni boshladi. AQSH Federal Rezerv bankining Maslahat Kengashi elektron pulga “elektron shaklga o'tkaziladigan pullar” deb tushuncha berdi. Elektron pullar standart bank hisob-raqami shaklidagi bank yoki moliya institutining kafolatiga ega bo'ldi. Aynan shu davrda dasturiy paketlar shakllangan.

2010-yillarda yangi Bitcoin-nomli piring (ingl. peer-to-peer, P2P – tengma-teng) pul tizimi yaratildi. Bunda P2P texnologiyasi qo'llaniladigan, nazoratchi organ, markaziy bank yoki pressing markazlar aralashmagan, transaksiya va pul emissiyasi tarmoq ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan jamoaviy harakat sodir etiladi. Bu kriptovalyutaning odatiy elektron puldan yana bir farqli jihati shundaki, u birorta ham mamlakat valyuta tizimiga bog'lanmagan.

Hozirgi kunda elektron pul tizimlari naqdsiz pulni muomala qilishning eng ommabop turiga aylandi. Yirik davlatlar butun dunyoga tarqalgan va ommaviy tusga ega bo'lgan elektron pul muomalasi bilan bog'liq bank kartalarni chiqarishgan. Dunyodagi eng mashhur, kredit va debet bank kartalari bilan ishlaydigan tizimlar bu:

VISA, MasterCard, VISA Electron va Maestrodidir.

Bundan boshqa kartalar bilan ishlaydigan bir qancha tizimlar ham mavjud albatta, faqat ular qamrab olgan amal qilish doirasi nisbatan torroq.

Qo'shimcha qilish joizki, VISA kartalari bo'yicha yillik savdo aylanmasi 4,8 trillion AQSH dollarni tashkil qiladi. VISA kartalari dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida qabul qilinadi. Dunyoda to'lov kartalarining 57% VISA kartalari tashkil qiladi, asosiy raqobatchilari MasterCard 26% va American Express 13% tashkil qiladi.

MasterCard Worldwide – dunyoning 210 mamlakatlaridagi 22 ming moliyaviy tashkilotlarni birlashtirgan xalqaro to'lov tizimi hisoblanadi. Bosh ofisi AQSHning Nyu-York shahrida joylashgan.

Internet-banking tizimida ishlaydigan to'lov tizimlari ishlatish doirasi, hududlarni qamrab olishi va to'lov imkoniyatiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ularning ayrimlari MDH davlatlari hududida amal qilsa, ba'zilar xalqaro transaksiyalarni amalga oshirishda ishlatiladi.

Shulardan eng mashhur elektron tizimlardan biri Webmoney hisoblanadi. Bu tizim aksariyat internet-do'konlarning elektron to'lovlarida ishlatiladi va o'zining o'ta mustahkam xavfsizlik tizimi bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda Webmoney tizimidan foydalanuvchilarning qariyb 70 foizi rossiyaliklardir. O'zbekistonda ham mazkur to'lov tarmog'i oxirgi 2 yil ichida keng ishlatila boshlandi va, hattoki, uning WMZ-belgilarini milliy valyuta – so'mga almashtiradigan saytlar paydo bo'ldi.

ETT rivojlanish bosqichlari

1-bosqich.

• 1991 yil

Viloyatlar ichida hisob-kitoblar pochta va tashuvchilar orqali yagona hisoblash markazida amalga oshiriladi. Bu jarayon bir haftani tashkil etar edi. Viloyatlararo hisob-kitoblar ham pochta orqali avizo hujjatlari asosida amalga oshirilgan. Bunda mablag'lar bir mijozning hisobvarag'idan ikkinchi mijozning hisobvarag'iga bir oydan ikki oygacha bo'lgan muddat mobaynida kelib tushar edi.

• 1992 yil

Markaziy bank Bosh axborotlashtirish markazida banklararo hisob-kitoblarda elektron pochta usuli yaratish ustida ishlandi. Shuningdek, bank amaliy ish kunini kompyuterlar vositasida bajarish amaliy dasturini yaratish va ularni banklarda tatbiq etish bo'yicha ish olib borildi.

• 1993 yil

Shu yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunini bajarish yuzasidan Markaziy bankda va uning hududiy Bosh boshqarmalarida axborotlashtirish

boshqarmasi va bo'limlari tashkil etildi. Banklararo maxsus ajratilgan aloqa kanallari vazifasida elektron to'lov tizimini ishga tushirish borasida ish olib borildi. Respublika bank tizimini axborotlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Sobiq Ittifoq respublikalari bilan o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solish va ularga xizmat ko'rsatish amaliy dasturi yaratildi. Markaziy bankning hududiy boshqarmalari to'liq kompyuterlashtirildi. Ya'ni bir paytda respublika elektron to'lov tizimining zamini yaratila boshlandi. Shu yilning dekabr oyidan boshlab juda qisqa muddat, uch oy mobaynida Sobiq Ittifoq respublikalari bilan 1991, 1992 hamda 1993 yillardagi yig'ilib qolgan o'zaro hisob-kitoblar, qarzlar hisoblab chiqildi va 1994 yilning mart oyiga kelib bu borada aniq ma'lumotlarga ega bo'lindi.

- 1994 yil

18 mart kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 146-sonli "Bank tizimini takomillashtirish, pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, Markaziy bank tizimida elektron pochталarni joriy etishni oktyabrga qadar tugallash vazifasi yuklatildi. Shuningdek, Qarorda respublika bank kompyuter tizimini yaratish uchun zarur valyuta mablag'larini ajratish ham ko'rsatildi.

13 iyul kuni Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Unga asosan, banklar qator soliqlardan ozod qilindi va bo'shagan mablag'larni o'z faoliyatini kompyuterlashtirishga sarflash shart qilib qo'yildi. Mazkur Qarorlarga binoan tijorat banklarining bo'limlari kompyuterlashtirila boshlandi va ular elektron to'lov tizimiga qo'shib borildi.

Avqust oyi oxiriga kelib mustaqillikning uch yilligi sharafiga elektron to'lovlar vaqtinchalik Nizomi yaratildi.

Oktyabr oyidan boshlab esa, elektron pochta respublika bank tizimida ishga tushirildi.

Respublika bank tizimida buxgalteriya hisob-kitoblarni va bank amaliy ish kunini umumiy bir ko'rinishga keltirish uchun zarur ishlar amalga oshirildi.

Markaziy bank qilingan bu ishlar bilan cheklanib qolmasdan, o'zining mutaxassislari kuchi bilan elektron to'lov tizimi amaliy dasturini respublika miqiyosida tatbiq etish ustida ham tinimsiz ish olib bordi va 1995 yil uchun zamin yaratdi.

2-bosqich.

• 1995 yil

April oyida Markaziy bank Jahon banki mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi banklararo to'lov tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan xalqaro tanlov-tender e'lon qildi.

Markaziy bankda tashkil etilgan elektron to'lov tizimini yaratish ishchi guruhi o'tgan yillardan olingan tajribalar va xulosalar, shuningdek, jahonning ilg'or davlatlari yutuqlarini o'rganish va tahlil qilish asosida elektron to'lov tizimi texnologiyasini yaratdilar. Eski tizim 19 avgustdan boshlab yangi texnologiya bilan almashtirila boshlandi. Bu paytga kelib Markaziy bank tizimida hisob-kitob markazlari tashkil etildi va tijorat banklariga elektron to'lov bo'yicha xizmat ko'rsatila boshlandi. Yangi texnologiyaga o'tila borishi sababli yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: elektron pochta va elektron to'lov tizimlari ishlab turdi. Yil oxiriga kelib esa barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari elektron to'lov tizimiga qo'shildi.

• 1996 yil

Yangi tashkil etilgan hisob-kitob markazlari tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarini kliring markazlaridan o'zlariga o'tkaza boshladilar. Iyul oyiga kelib kliring markazlari butunlay qisqartirildi. Shu bilan bir qatorda, Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi mutaxassislari va bank xodimlari to'lovlarning o'tishi muddatini yanada qisqartirishni ta'minlash borasida tinmay izlanish olib bordilar. Buning natijasi o'laroq, yil oxiriga kelib to'lovlar o'tishi muddati respublika miqyosida 2 soat, viloyat miqyosida 1 soatni tashkil etdi.

• 1997 yil

Respublika bank tizimida yangi hisob tizimi rejasiga o'tilishi tijorat banklari va Markaziy bank to'lov tizimi tub burilish yasadi. Elektron to'lov tizimining mavjud amaliy dasturi rivojlantirilib, tizimning katta o'tkazish qobiliyati va hujjatlarning yuqori tezlikda qayta ishlanishi (hududlararo hisob-kitoblar – 15 daqiqada, bitta hudud ichidagi hisob-kitoblar esa – 3-5 daqiqada) pul mablag'lari aylanishini jiddiy oshirdi. Bu esa respublika xo'jalik yurituvchi subyektlarining faoliyatiga ijobiy ta'sir etdi, banklarga vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish va kredit xavf-xatari darajasini hamda likvidlilik xavf-xatarini tezkorlikda boshqarish imkonini berdi.

3-bosqich.

• 1998 yil

Markaziy bank bilan Jahon banki o'rtasida 1998 yil dekabr oyida "Respublika moliya sohasini rivojlantirish" uchun zayom ajratish to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu loyiha besh komponentga bo'linib, shulardan to'rtinchi komponent o'z ichiga quyidagi masalalarni oladi:

- to'lov tizimini takomillashtirish;
- boshqarish uchun axborot tizimini yaratish;
- bank telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- axborot tizimi muhofazasini yaratish.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha tadbirlarni nihoyasiga yetkazish 2003 yilning ikkinchi yarmiga mo'ljallangan bo'lib, har bir masala bo'yicha rivojlanish yo'llari tijorat banklari bilan birgalikda aniqlandi va chet el ekspertlarining xulosalari olindi.

4-bosqich.

• 2002 yil

To'lovlarni real vaqtda o'tishini ta'minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisobvarag'i orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha texnologiya tanlanib, ushbu bo'yicha texnik topshiriq, ishlab chiqildi va banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazish hamda banklarda axborotlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha dastur yaratildi. Tijorat banklarining banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimiga o'tishi 2002 yilning iyun oyidan boshlandi.

To'lov tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tender o'tkazilib, tender g'olibi bilan mavjud bank telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish loyihasi bo'yicha shartnoma tuzildi.

Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish maqsadida to'lovlarni amalga oshiradigan milliy tizim yaratish konsepsiyasi tavsiyanomalar va sxemalar ishlab chiqildi. Respublikamizda mavjud yirik banklar, xususan TIF Milliy bank, Asaka bank, Sanoatqurilish banki, Xalq banki va Paxta banklarida plastik kartochkalar orqali to'lovlarni tashkil qilish yo'lga qo'yildi.

• 2003 yil

Tijorat banklarini banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimi 2003 yil 8 sentyabrda to'liq ishga tushirildi va barcha banklarda markazlashtirilgan axborot tizimi tashkil etildi. Bu banklarga kundalik to'lovlar o'tkazish uchun band bo'lgan mablag'larni bir qismini bo'shashiga va ularni o'rinli aktivlarga joylashtirishga, bank o'z filiallarini mavqeini tahlil qilib kerakli chora

ko'rishga, bankning kunlik yagona balansi uning likvidligini, tavakkalchiliklarini, majburiyatlarini, o'z kapitalini aniq ifoda etishga imkon beradi.

Shuningdek, Jahon banki krediti hisobiga tuzilgan shartnomaga asosan Bank telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish loyihasini amalga oshirish ishlari bajarilayapti, shuningdek, respublika moliya tuzilmalarini banklararo ma'lumot uzatish tarmog'iga ulash va o'zaro ma'lumot almashinuvining elektron tizimini yaratish bo'yicha ishlar olib borildi.

- 2004 yil

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrda qabul qilingan "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli Qarori bilan ushbu tizimni kengaytirish borasidagi ilk reja ko'rsatkichlari, shuningdek, to'lovlarni plastik kartochkalar orqali qabul qilish terminallari bilan jihozlanadigan obyektlar ro'yxati tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, mazkur qarorga muvofiq mamlakatda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi. Mazkur qarorga muvofiq, barcha tijorat banklari plastik kartochkalar tizimida ish olib borilishiga zamin yaratildi.

- 2006–2012 yillar

Barcha tijorat banklarida (DT Xalq bankidan tashqari) yagona balans tizimi joriy etildi. Davlat tijorat Xalq bankida yagona balans texnologiyasiga asoslangan tizimni joriy etish ishlari bosqichma-bosqich olib borilib, 2008 yil 24 noyabrda to'liq ishga tushirildi. Bundan tashqari, Markaziy bankning Integrallashgan axborot-tahliliy tizimi (IATT) 2009 yil may oyida yaratilib, unda tijorat banklari tomonidan 58 ta talabnoma asosida Markaziy bankning ma'lumotlar omborxonasida ma'lumotlarni jamlash, nazorat qilish, hisobini yuritish, qayta ishlash, shakllantirish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda IATT tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Integrallashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi, Kredit axboroti milliy instituti axborot tizimi, Yagona vakillik hisobvaraqlar hisob-kitob markazi, Elektron hujjat aylanishi tizimi, bank tizimi ma'lumotlar bazalari kiritilgan va ma'lumotlar omborxonasi tashkil etilgan bo'lib, ayni paytda mazkur tizimlarni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

- 2013–2014 yillar

Markaziy bankning Kliring tizimi bo'yicha ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston

Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi amaliyotga tatbiq etildi.

Ushbu tizimni yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Shuningdek, mazkur tizim mijozlarga kunu-tun bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini berdi.

Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, shuningdek, "O'zbekenergo" DAK hamda "O'ztransgaz" AKning billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda elektr energiyasi va gaz iste'moli to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, "O'zkart" banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini tartibga solish va uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish Bosh Markazida "Banklararo universal netting axborot tizimi" dasturiy majmuasi ishga tushirilishi munosabati bilan "O'zkart" tizimida hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitob markazidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar markaziga o'tkaziladi. Bunda o'zaro majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar tijorat banklarining Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirilib, tizim xarajatlarini kamayishiga olib keladi va tijorat banklari o'z mablag'laridan samarali foydalanishlariga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimi PQ-1989-sonli qarori bilan belgilangan muddatlarda ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi vaqtda bank tizimi tomonidan ushbu axborot tizimini takomillashtirish va joriy qilish doirasini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

ETTning sinflanishi

Rossiyada ommabop bo'lgan to'lov tizimlaridan yana boshqalari Yandeks.Dengi va QIWI-koshelyoklardir. Tadqiqotlarga ko'ra 12 millionga yaqin rossiyaliklar Yandeks.Dengi, 13 millionlan ortig'i QIWI koshelyok akkaunt (hisob-raqam)lariga ega.

Bu elektron to'lov tizimlarni boshqacha qilib fiatsiz elektron pullar deb ham atashadi. Bular qatoriga yana quyidagi tizimlarni kiritish mumkin:

- EasyPay
- OKPAY
- RBK Money
- Dengi@Mail.Ru (QIWI- 100% sotib olgan)
- SKRILL
- Kriptovalyutalar: Bitcoin, Litecoin
- Eleksnet
- PayQR
- Perfect Money
- PayPal
- Moneybookers com va boshqalar.

Shular ichidan dunyo miqyosida amal qiladigan, hammabop tizimlardan OKPAY va Perfect Money larni alohida ajratish mumkin.

Birinchidan, bu ikkala tizimdagi elektron pullarning himoyalik (xavfsizlik) darajasi o'ta yuqori bo'lib, verifikatsiya (shaxsni to'liq tasdiqlash) operatsiyalarini amalga oshirgandan keyingina kerakli darajaga erishish mumkin. Ikkinchidan, xalqaro transaksiyalar tezkorlik bilan, minimal foizlarda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ham elektron to'lov tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha keng amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan qonun va qonun-osti hujjatlari bank va to'lov tizimini tartibga solishga, elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda elektron pulni transaksiyasi bilan shug'ullanadigan, aholi o'rtasida keng tarqalgan tizim bu Click.uz dir (Paynet va Uzcarddan tashqari). Undagi to'lovlar uyali telefon tarmog'i orqali amalga oshiriladi. www.click.uz

Shunday tizimlardan yana biri UPAY to'lov tizimidir. Bu to'lov tizimi 2010 yilda O'zbekiston Savdo-sanoat Palatasi, ATB "Mikrokreditbank" va «Beeline» uyali telefon operatori hamkorligida yaratilgan va boshida «SMS-TO'LOV» degan nom olgan edi. Ishlash prinsipi Click.uz tizimiga o'xshash. www.upay.uz

Ushbu to'lov tizimlari orqali hozirgi kunda telefon, kommunal, internet xizmatlari, soliq, sug'urta to'lovlari, temir yo'l va avia-chiptalarga buyurtmalar berish operatsiyalarini amalga oshirish mumkin.

Mamlakat hududida internet banking operatsiyalarini amalga oshiradigan yangi tizimlardan yana bittasi – bu WEBSUM.UZ tizimidir.

WEBSUM – bu Internet tarmog'i orqali bir zumda tovar yoki xizmatlarni sotish yoki xarid qilish imkonini beruvchi elektron to'lov tizimidir.

WEBSUM elektron to'lov tizimi manzili: www.websum.uz

Afsuski, iPAY – UzExdagi birja savdolarida va internet do'konlarda onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi, O'zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasining to'lov tizimi hozirgi kunda faoliyatini to'xtatganga o'xshaydi.

Xo'sh, elektron to'lov tizimning afzalliklari nimadan iborat:

- Xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;

- Savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati;

- Ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta sotuvchilarga murojaat qila olish imkoniyati;

- Xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;

- Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarining raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

ETTning xususiyatlari

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy axborot tizimini rivojlantirishga oid konsepsiya hayotga izchil tatbiq etilayotir. Bunda axborot sohasida davlat siyosatini belgilaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot makonidagi munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jamiyat hayotining barcha jabhasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Aloqa to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlar va boshqa hujjatlar muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha jabhasida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish maqsadida axborotlashtirishning milliy tizimi shakllantirildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy vositalar, ma’lumotlarning axborot bazalari ishlab chiqildi, respublika, tarmoq va mahalliy axborot-kommunikatsiya tizimi shakllantirildi, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlangan infratuzilmasini joriy etmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishga erishish mumkin emasligini alohida qayd etgandi.

Darhaqiqat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va hayotga faol tatbiq qilinishi aholining turmush tarzini o‘zgartirib, tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, tijorat bitimlarini tuzishning barcha bosqichida eski – qog‘oz usulidan voz kechilib, yangi ilg‘or yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Elektron tijorat bugungi kunda bozorning ajralmas qismiga aylanib, nafaqat dunyoda, balki yurtimizda ham izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda “Uzcard”, “Websum” singari to‘lov va elektron savdo tizimlari hamda “Click” mobil banking keng qo‘llanilib, tobora ommalashmoqda. Hozirgi vaqtda internetda o‘z mahsulot hamda xizmatlarini taqdim qilayotgan va “Websum” chakana savdo to‘lovidan foydalanayotgan kompaniyalar soni 80 dan ortiqni tashkil etadi. Yuridik hamda jismoniy shaxslar ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘zlariga qulay usulda – masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanishayapti. Mobil va internet-banking sohasida xizmatlar ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Onlayn-karta egalari uylaridan chiqmagan holda kerakli narsani xarid qilishi, buyurtma berishi, mobil telefon orqali turli to‘lovlarni amalga oshirishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarning izchil takomillashtirib borilayotgani, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy

etilayotgani elektron tijoratni yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lmog'ida. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun bilan birga, "Elektron to'lov to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va boshqa qonunlar qabul qilindi. Ammo shuni alohida qayd etish kerakki, axborot-bo'lib, elektron tijorat subyektlari faoliyatining normativ-huquqiy mexanizmlarini muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Axborot texnologiyalari taraqqiyotining bugungi darajasi mamlakatimizda ham elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni yanada aniq tartibga solish hamda amaldagi qonunchilikka tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi.

Shu bois joriy yilning may oyida yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat elektron tijoratni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Binobarin, unda elektron hujjatlardan foydalangan holda shartnomalar tuzishning o'ziga xos xususiyatlari tartibga solindi, elektron tijorat ishtirokchilariga, shu jumladan, axborot vositachisiga qo'yilgan talablar aniqlashtirildi. Ushbu hujjatda belgilangan yangi huquqiy normalar asosida kichik biznes subyektlari bozorda yanada samarali raqobat olib borishlari mumkin. Ayni paytda tadbirkorlikda axborot tizimlariga tayanib faoliyat yuritish imkoniyatlari kengaytirilib, tijoratda innovatsion usullardan keng foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun xo'jalik subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng qo'llash hamda davlat va korporativ xaridlarini elektron shaklda amalga oshirishning yangi imkoniyatlarini ochadi. Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning yangi usullari joriy qilingani tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha g'ov va to'siqlarning oldini olishga xizmat qiladi. Qonun tadbirkorlikni yanada ravnaq toptirish, ishbilarmonlik muhitini bundan-da yaxshilash, xalqaro standartlarga javob beradigan texnologik bozor infratuzilmasini tashkil qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar tug'diradi. Ushbu huquqiy hujjat O'zbekistonda elektron tijorat sohasini xalqaro bosqichga ko'tarish imkonini yaratib, tadbirkorlarning internetdan zamonaviy bozor maydoni sifatida samarali foydalanishiga turtki beradi.

Qonunning bevosita ijrochilari hamda senatorlar oldida turgan muhim vazifalardan biri, shak-shubhasiz, qonun normalarining joylarda so'zsiz bajarilishini ta'minlash, mazkur jarayonda parlament nazorati imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yuzaga keladigan muammolarni

o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida huquqni qo‘llash amaliyotini doimo o‘rganib borish hamda aholiga ushbu hujjat qoidalari mazmun-mohiyatini keng tushuntirish hisoblanadi. Binobarin, qonun qat’iy ijro etilsagina, elektron tijorat tizimi barqaror rivojlanadi, uning bozor iqtisodiyoti tarkibidagi roli oshadi. Bularning barchasi pirovardida yurtimizda tadbirkorlikning yanada rivojlanib, mamlakatimiz iqtisodiyotining bundan-da yuksalishiga xizmat qiladi.

Elektron to‘lovlarning normativ-huquqiy bazasi.

Qonunlar:

- O‘zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Elektron to‘lovlar to‘g‘risida"gi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni

Normativ aktlar

Me‘yoriy hujjatlar:

- | | |
|---|----------------------|
| – "O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida"gi Nizomi | № 2465
03.06.2013 |
| – "Yuridik shaxslar tomonidan milliy valyutadagi korporativ bank kartalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida"gi Nizom | № 1470
18.04.2005 |
| – "Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida"gi Nizomi | № 1545
14.02.2006 |
| – "O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari avtomatlashtirilgan bank tizimlarida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Nizomi | № 1552
13.03.2006 |
| – "Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan milliy valyutadagi bank kartalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida"gi Nizomi | № 1850
04.09.2008 |
| – "Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarida ishlash tartibi to‘g‘risida"gi Nizomi | № 2155
19.11.2010 |
| – "O‘zkart" banklararo chakana to‘lov tizimi faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida | № 2369
30.05.2012 |
| – Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo‘llagan holda to‘lov tizimini tashkil qilish qoidalari | № 1767
13.02.2008 |

Qarorlar

Iqtisodiyotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tatbiq etilishi, o‘z navbatida, iste‘molchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda elektron to‘lovlar, internet global tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali bank sohasi mijozlari uchun interaktiv xizmatlar ko‘rsatish tizimlari joriy etilib, ulardan samarali foydalanilmoqda. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik vakillari tomonidan o‘z faoliyatlari jarayonida elektron to‘lovlar va elektron tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash va yuqori iqtisodiy natijalarga erishishlarida yetarli asoslarni yaratadi.

Ayni vaqtda bank-moliya sektorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘shib boruvchi global tendensiyasi, bank plastik kartochkalari miqdorining o‘shishi hamda elektron to‘lovlar va elektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida, yurtimizda elektron to‘lovlar va elektron tijorat sohasidagi qator loyihalarning amalga oshirilishi faollashib bormoqda. Mamlakatimiz bank va moliya muassasalari internet global tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali o‘z mijozlariga masofadan turib elektron to‘lovlar, “SMS-banking”, “Mobil-banking” kabi interaktiv bank xizmatlarini ko‘rsatmoqdalar.

Tijorat banklari tomonidan esa aholiga keng miqyosda masofaviy bank xizmatlari taqdim etilayotgani diqqatga sazovordir. Mamlakatimizda 2013 yil 1 yanvar holatiga 9,57 mln. dona plastik kartochkalar chiqarilgan, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 mln. donaga ko‘pdir. Hisob-kitob terminallarining soni esa 2012 yildagi 99,5 mingtadan joriy yilda 112,7 mingtaga yetdi. Respublika bank muassasalari tomonidan keng miqyosda hisoblarni masofaviy boshqarish xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Joriy yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, mazkur xizmatlardan foydalanuvchilar soni 92 mingtaga yetdi, jumladan, “Internet-banking” va “Bank-mijoz” xizmatidan foydalanuvchilar soni 38,8 mingtaga, “Mobil-banking” va “SMS-banking” 53,6 mingtadan ziyodni tashkil etadi.

Hozirda axborot texnologiyalari sohasi subyektlari tomonidan elektron to‘lovlar va elektron tijoratni amalga oshirishni avtomatlashtirish imkonini beruvchi xilma-xil texnologik yechimlar taklif etilmoqda.

Xususan, internet tarmog'ida plastik kartochkalar bilan to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Internet tarmog'ining «uz» domenida internet-do'konlar mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga masofadan turib, muayyan vaqt tartibida ehtiyoj bo'lgan tovarlarini xarid qilish va xizmatlardan foydalanishlari uchun faoliyat ko'rsatilmoqda.

Zaruriy telekommunikatsiya va dasturiy infratuzilmaning mavjudligi elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimi rivojlanish jarayonining muhim tarkibi hisoblanadi. Respublika kommunikatsiya tarmoqlarining faol rivoji fuqarolar uchun elektron xizmat ko'rsatish spektri va hududiy qamrovining kengayishida muhim omil bo'ldi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da ilgari surilgan qonunchilik tashabbuslarining izchillik bilan amalga oshirilishi davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga kerakli asos yaratdi va yurtimizda aholi turmush darajasini yanada oshirish, xususan, fuqarolarga elektron to'lov va elektron tijorat xizmatlarini keng miqyosda taqdim etishga qulay imkoniyatlarni yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Elektron to'lov va elektron tijorat tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish masalalari" mavzuidagi seminarda ana shular xususida atroflicha mulohaza yuritildi.

Mazkur tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorlik va investitsiya faolligini yanada oshirishni ta'minlash maqsadida elektron to'lovlar va elektron tijorat tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish, to'lov tizimini tartibga solish va optimallashtirish, elektron tijorat infratuzilmasini shakllantirish orqali mahalliy tovarlarni tashqi bozorda realizatsiya qilish ishlarini kengaytirishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Seminarda tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bevosita muloqotni istisno etuvchi elektron tizimga, shu jumladan, internet tarmog'iga keng miqyosda o'tishni normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash, shuningdek, soliq va bojxona ma'murchiligida elektron tijorat va elektron

to'lovlar tizimini takomillashtirish hamda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari atroflicha muhokama etildi.

Ma'lumki, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, bank, moliya va tijorat tuzilmalari faoliyatiga keng miqyosda joriy etish O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2012-yil 16-iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2012-yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida asosiy yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan. Ushbu normativ hujjatlarda plastik kartochkalar va boshqa elektron to'lov vositalari orqali internet tarmog'idan tovar va xizmatlarga to'lov imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dasturiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish hamda tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur seminar muhokama etilgan masalalar O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining saylovoldi Platformasi va Harakat dasturida ham muhim o'rin tutishini alohida e'tirof etish joiz. Shu bois fraksiya a'zolari ham tadbirda faol ishtirok etib, bu borada partiya dasturiy g'oyalardan kelib chiqqan holda, fraksiyaning qat'iy pozitsiyasini bayon etishdi.

Partiya fraksiyasining nuqtai nazaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ijrosini ta'minlash borasida mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun, eng avvalo, internet tarmog'ining milliy segmentini ma'lumotlar bilan to'ldirishni rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek, Milliy axborot qidiruv tizimining ish faoliyatini tubdan va sifatli yaxshilash hamda undan foydalanuvchilar sonini oshirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi. Qolaversa, elektron tijorat infratuzilmasini shakllantirish orqali biz o'zimizda ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni tashqi bozorda realizatsiya qilish ishlarida qator ustuvorliklarga ega bo'lamiz. Bu masala ham partiyamiz dasturiy vazifalarida keng aks ettirilgan.

To'lov tizimlaridagi transaksiyalar almashinuvi protokollari

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi 2014-yil amaliyotga tatbiq etish belgilangan.

Ushbu tizimni yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va Banklar assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Shuningdek, mazkur tizim mijozlarga kunu-tun bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini beradi.

Mazkur qarorning ijrosini samarali ta'minlash maqsadida Markaziy bankning 2013-yil 29-iyundagi 710-sonli farmoyishi qabul qilingan bo'lib, unda "Kliring" axborot tizimi majmuasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tarkibi va tizimni amaliyotga joriy etilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan hamda tizimni to'liq amaliyotga joriy etish muddati 2014-yil 1-choragi deb belgilandi.

Loyiha ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda Markaziy bank huzurida Hisob-kitob banki tashkil qilinib, bank mijozlarining majburiyatlari bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yaratildi va Yagona umumrespublika Protsessing markazi bilan o'zaro faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu bosqich belgilangan muddatda, ya'ni 2013-yil 16-sentyabrda bajarilib, hozirgi kunda barcha bank kartlari orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha yakuniy hisob-kitoblar Markaziy bankning Kliring tizimi orqali o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy asoslarni belgilab berish maqsadida Adliya vazirligida 2369-son bilan ro'yxatga olingan "O'zgartirishlar kiritildi. Hozirgi kunda ushbu tizim orqali amalga oshirilgan o'rtacha oylik transaksiyalar summasi 1,14 trln so'mni tashkil etmoqda.

Ikkinchi bosqichda 2013-yilning 4-choragi va 2014-yilning 1-choragi davomida Markaziy bankning Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo‘mitasi axborot tizimi, shuningdek, “O‘zbekenergo” Davlat aksiyadorlik kompaniyasi hamda “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyalarining billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to‘lovlar hamda elektr energiyasi va gaz iste‘moli to‘lovlari real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, Adliya vazirligida “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitob kliring tizimi to‘g‘risida”gi Nizom 2014-yil 4-aprelda 2570-son bilan ro‘yxatga olinib, yaratilgan tizimni bir maromda ishlashi uchun huquqiy asos ta‘minlandi.

Kliring tizimi ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar Markaziy bank va Davlat soliq qo‘mitasi, DAK “O‘zbekenergo”, AK “O‘ztransgaz”, shuningdek, tijorat banklari bilan hududiy elektr tarmoqlari, “Gazta‘minot” korxonalari o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar hamda Markaziy bankning Axborotlashtirish bosh markazi va “Bilayn” uyali kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan o‘zaro Bosh kelishuvlar asosida tartibga solindi.

Hozirda Markaziy bank Kliring tizimi orqali ushbu yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lovlarning o‘rtacha kunlik summasi 228 mln. so‘mdan oshib, shundan, ishlatilgan elektr energiyasi uchun o‘rtacha kunlik to‘lovlar 165,5 mln. so‘mni, iste‘mol qilingan gaz uchun o‘rtacha kunlik to‘lovlar 46,0 mln. so‘mni, shuningdek, soliqlar bo‘yicha o‘rtacha kunlik to‘lovlar 16,5 mln. so‘mni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, to‘lovlar hajmini oshib borishini inobatga olib, 2013 yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini 2013–2020-yillarda rivojlantirishning kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasining” 2-sonli bayonnomasiga asosan, Markaziy bank Kliring tizimini texnik jixozlash loyihasi Davlat buyurtmasiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda tender savdolari o‘tkazilib, Kliring tizimi uchun server va xotira jihozlarini xarid qilish shartnomasi imzolandi va Respublika axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirildi. Bugungi kunda Kliring tizimi faoliyatini kengaytirish maqsadida tizimga ulanish taklifi bilan Davlat aloqa qo‘mitasi tarkibiga kiruvchi “O‘zbektelekom”, “O‘zonlayn”, “O‘zmobayl” korxonalari, “Suvsoz” DUK, “Issiqlik quvvati” UK, “Maxsustrans” DUK, shuningdek, Yusell va

Perfektum Mobayl mobil aloqa operatorlariga xat va texnik talablar yuborildi.

Yusell uyali kompaniyasi tomonidan bugungi kunda Kliring markazi bilan moslashtirish ishlari amalga oshirilib, test sinovlari o'tkazilmoqda. Qolgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar texnik talablarni o'rganish jarayonida. Mazkur korxonalarining axborot tizimlari tayyorligiga qarab, ularning billing tizimlari Markaziy bankning Kliring tizimiga bosqichma-bosqich ulanib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimi belgilangan muddatlarda ishga tushirilgan bo'lib, aholiga soliq va majburiy to'lovlarni, ko'rsatilgan maishiy va boshqa xizmatlar to'lovlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha qulayliklar yaratildi.

Bank tizimi tomonidan ushbu axborot tizimidan foydalanish samarasini oshirish maqsadida uning joriy qilish doirasini yanada kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida taqdim etilayotgan kartochkalar shaxsiy, korporativ va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mo'ljallangandir. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va boshqa barcha masalalar yuzasidan unga xizmat ko'rsatuvchi bankka murojaat qilinadi, shuningdek, bank va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan nizolar ular o'rtasida bank hisobvarag'ini ochish va yuritish bo'yicha imzolangan shartnoma asosida hal etiladi.

Tijorat banklarining plastik kartochkalari ikki xil - "On-line" va "Off-line" rejimida ishlaydi. "Off-line" rejimidagi plastik kartochkalar elektron hamyon vazifasini bajarsa, "On-line" rejimidagilar mijozning to'g'ridan-to'g'ri bankdagi hisobvarag'iga kirishi va mablag'larni to'siqsiz ishlatishiga imkoniyat yaratadi.

"On-line" rejimida ishlaydigan kartochkalar islohotli hisoblanadi, chunki ular foydalanishda quyidagi bir qator afzalliklarga ega:

- kartochkalarga pul mablag'larini tushirish va uni avtorizatsiya qilish zaruriyati yo'q;
- kartochkalar orqali amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar haqida ma'lumotlarni real vaqt ichida SMS yordamida olish mumkin;
- "Internet banking", "Mobil banking" va boshqa yangi turdagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud;

- plastik kartochkalardagi pullarni elektron pullarga aylantirish va elektron tijoratda pul majburiyatlarining hisob-kitobini amalga oshirishda foydalanish uchun imkoniyatni yuzaga keltiradi.

Respublika "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari tarkibiga kiritilgan Markaziy bankning chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimi aholining naqd pulga bo'lgan ehtiyojini kamaytirish, pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish hamda aholiga kommunal va boshqa xizmatlar uchun chakana to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida joriy etilgan.

Mazkur to'lov tizimini yaratish jarayonida quyidagilar amalga oshirildi:

- chakana to'lovlar holatini keng tahlil qilish natijasida mavjud yechimlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlash;
- kliring tizimini yaratish va joriy etish zaruriyatini asoslash;
- kliring tizimi uchun texnik talablar va boshqa loyihaviy hujjatlarni ishlab chiqish va "Elektron hukumat" tizimi strukturasi bilan kelishish;
- chakana to'lovlar kliring tizimi qatnashchilarining axborot tizimlari va billing tizimlariga qo'yiladigan talablar va dasturiy interfeysni ishlab chiqish;
- kliring tizimi infrastrukturasi axborot muhofazasi va xavfsizlikni ta'minlash;
- kliring tizimining dasturiy ta'minotini va ma'lumotlar bazalarini yaratish, server va boshqa texnikalarni ishga tushirish, qatnashchilar bilan o'zaro shartnomalar tuzish;
- aholi va xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi muassasa va korxonalarining billing tizimini o'rganish va zarur tavsiyalar ishlab chiqish;
- kliring tizimini aholi va xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi muassasa va korxonalarining billing tizimlari bilan o'zaro bog'lash;
- kliring tizimining qatnashchilari va foydalanuvchilari tarkibini, qatnashchilar tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar sonini muntazam ravishda ko'paytirish maqsadida keng targ'ibot ishlarini olib borish;
- kliring tizimidan foydalanish bilan bog'liq Hukumat qarorlarini o'z vaqtida bajarish.

4. Kliring tizimini joriy etish jarayoni 2013-yil 3-choragidan boshlanib, hozirgi kun holatiga quyidagilar ijro etildi:

- 1-bosqichda mavjud banklararo chakana to'lov tizimlarining faoliyatini samarali tashkil qilish va depozit munosabatlardan voz kechish maqsadida kliring tizimida Hisob-kitob banki vazifalari tatbiq etildi;

- 2-bosqichda Davlat soliq qo'mitasi hamda "O'zbekenergo" AJ axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda kliring tizimi orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hamda elektr energiyasi iste'moli uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi;

- 3-bosqichda kliring tizimiga telekommunikatsiya provayderi va operatorlari hamda kommunal xizmat (telekommunikatsiya xizmatlari, ekspluatatsion va kommunal xizmatlar) korxonalarining axborot va billing tizimlari ulandi va to'lovlar amalga oshirilmoqda.

Kliring tizimi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab olish maqsadida "Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2570, 04.04.2014-y.) ishlab chiqildi.

Kliring tizimi va xizmat ko'rsatuvchi muassasa (korxonalar)ning o'zaro to'lovlarni o'tkazilishini ta'minlash maqsadida texnologik qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda kliring tizimi orqali banklar tomonidan quyidagi muassasa (korxonalar) xizmatlari uchun to'lovlar qabul qilinmoqda va o'tkazilmoqda:

- Davlat soliq qo'mitasi;

- "O'zbekenergo" AJ va "O'ztransgaz" AK;

- kommunal xizmat korxonalar "Maxsustrans" DUK va "Suvsoz" DUK;

- mobil telefon operatorlari va internet provayderlari "Unitel" MChJ, "Rubicon Wireless Communication" XK MChJ, "O'zbektelekom" AJ filiali "O'zMobayl";

- televidenie xizmatlarini ko'rsatuvchi "NetTelevision" MChJ.

2015-yil 1-yanvardan 25-noyabrgacha bo'lgan davr davomida kliring tizimi orqali o'tkazilgan to'lovlar qiymati jami 487 mlrd so'mdan ziyodni tashkil qildi. Muassasa (korxonalar) bo'yicha o'tkazilgan to'lovlar quyidagicha:

- Davlat soliq qo'mitasi – 117 mlrd 696 mln so'm;

- "O'zbekenergo" AJ – 195 mlrd 624 mln so'm va "O'ztransgaz" AK – 171 mlrd 198 mln so'm;

- "Maxsustrans" DUK – 2 mlrd 376 mln so'm va "Suvsoz" DUK – 406 ming 185 so'm;

- "Unitel" MChJ – 458 mln 637 ming so'm, "Rubicon Wireless Communication" MChJ – 14 mln 605 ming so'm, "O'zbektelekom" AJ filiali "O'zMobayl" – 1 mln 486 ming so'm;

- "NetTelevision" MChJ – 245 mln 297 ming so‘m.

Aytish joizki, bu ko‘rsatkichlar har oyda oshib bormoqda, ya‘ni kliring tizimi soliq, kommunal va boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun samarali xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan va boshqa shu turdagi xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar foydasiga o‘tkaziladigan to‘lovlarni 2016–2018-yillar davomida to‘liq kliring tizimidan o‘tkazilishiga erishish rejalashtirilgan. Jumladan, "Toshisqovvati" UK, "Tuyamuyun-Urgench" suvoqava tizimini ekspluatatsiya qilish boshqarmasi, "UZDIGITAL TV" MChJ korxonalarining billing tizimlari kliring tizimiga ulangan bo‘lib, to‘lovlarni o‘tkazish uchun imkoniyat yaratilgan.

Shuningdek, yaqin yillarda kliring tizimining abonentlari sonini oshirish, tizimning xizmatlari doirasini kengaytirish, ya‘ni xizmat ko‘rsatuvchi yangi korxonalarni tizimga ulash nazarda tutilmoqda.

Jumladan, barcha statsionar telefon operatorlari va filiallari ("O‘zbektelekom", "TSHTT", "Biznesni rivojlantirish markazi" va boshqalar), Internet provayderlari, barcha mobil telefon operatorlari, televidenie xizmatlarini ko‘rsatuvchi operatorlar foydasiga kliring tizimi orqali to‘lovlarni o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Muhokama savollari

To‘lov tizimlari nima?

To‘lov tizimlaridagi transaksiyalar o‘mi qanday?

Transaksiyalar almashinuvi qanday ko‘rinishda amalga oshiriladi?

ETT bo‘yicha qonunlar, normativ aktlar, qarorlarni sanab o‘ting.

Elektron to‘lov tizimlari (ETT) to‘g‘risida umumiy tushunchalar bering.

ETT rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?

ETTning sinflanishi va ETTning xususiyatlari sanab chiqing.

Ma'ruza 2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAVJUD BANK TIZIMLARI. POCHTA O'TQAZMALARI. TELEGRAF

O'zbekiston Respublikasi eiektron to'lovlar tizimi

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi to'lov hujjatlaridan foydalaniladi:

- memorial order;
- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- akkreditivga ariza;
- tijorat banking hisob-kitob cheki.

Banklar memorial orderlardan fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqd pulsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin. Tijorat banklari o'z operatsion xarajatlarini naqd pulsiz tartibda amalga oshirayotganda memorial order tuziladi.

Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo'natilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish (storno berish) yo'li bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to'g'rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning roziligisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatib o'tilgan bo'lishi shart.

To'lov topshiriqnomasi – mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan oluvchining hisobvarag'iga ma'lum bir summani o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini anglatadi.

To'lov talabnomasi – o'zida mablag' oluvchini to'lovchi tomonidan bank orqali ma'lum bir summani to'lash to'g'risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjatidir.


Inkasso topshiriqnomasi mablag' oluvchining bankka to'lovchining hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi topshirig'ini anglatadi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida, mijozning (to'lovchining) topshirig'iga va uning ko'rsatmasiga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), o'z zimmasiga uning kontragenti-mablag' oluvchi foydasiga to'lovni amalga oshirish majburiyatini yoki mablag' oluvchi


tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlarni va boshqa shartlarni bajarish sharti bilan ushbu to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha vakolatlarni boshqa bankka taqdim etishni o'z zimmasiga oladi.

Tijorat bankining hisob-kitob cheki – mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankiga chek beruvchining hisobvarag'idan chek ushlovchining hisobvarag'iga ma'lum summadagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha bergan topshirig'idir.

2015 йил давомида Марказий банкнинг банклараро тўлов тизими орқали амалга оширилган транзакциялар сони



2015 йил давомида Марказий банкнинг банклараро тўлов тизими орқали амалга оширилган транзакциялар суммаси



Jahon ETTlari

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasiga asoslangan holda, iste‘molchilarga tovar hamda xizmatlar uchun mobil va tezkor to‘lovlar qulayligi shartlarini yaratish, nobank naqd pul aylanmasini qisqartirish maqsadida «MOBLISS» chakana elektron to‘lov tizimi Uzbekiston bozorga kirib kelmoqda.

«MOBLISS» to‘lov tizimining asosiy maqsadi GPRS xizmatiga ulangan GSM yoki CDMA standartlari doirasida-ishlovchi uyali telefon yoki global internetdan foydalanuvchi iste‘molchilar talablarini qondiruvchi qulay va xavfsiz internet to‘lov tizimi tuzishdan iboratdir. *Hozirgi kunda u asosan quyidagi xizmat turlarini ko‘rsatib kelmoqda:*

- uyali telefon operatorlari, provayderlar, pullik televidenie xizmatlari uchun pul o‘tkazmalari amalga oshirish;
- magazin, restoran, kafe va yokilgi quyish shoxobchalarida tezkor to‘lovlari amalga oshirish;
- internet-magazindan turli mahsulotlar sotib olish;
- jurnal va gazetalarga internet aloqasi yordamida obuna bo‘lish;
- bir elektron hamyondan boshqa hamyonga sovg‘a sifatida po‘l o‘tkazish;
- amalga oshirilgan to‘lovlar haqida batafsil hisobot berish;
- muntazam amalga oshiriladigan to‘lovlarni avtomatlashtirish;

Bu xizmatlardan foydalanish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- mobil telefon yordamida elektron hamyonni boshqarish va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish (WAP/GPRS va WAP/GSM yordamida);
- internet global to‘ri yordamida hamyonni boshqarish;
- “Mobliss” tizimidan foydalanayotgan shoxobcha terminallari yordamida pul tulash;
- oila a‘zolari, do‘stlar va hamkasblar uchun to‘lov amalga oshirish.

Kundalik hayotimizda “Elektron hamyon” tushunchasi kundankunga ommalashib bormoqda. Uning qulayligi Internet tarmog‘iga ulangan har qanday vositadan boshqarish imkonining mavjudligi va to‘lovning tezkorlik bilan amalga oshirilishidir. Shu bilan birga, elektron hamyondagi pul mablag‘lari foydalanuvchining o‘zigagina tegishli bo‘lib, u yuqori xavfsizlikka egadir. «MOBLISS» tizimi orqali siz o‘zingiz uchun elektron hamyonni juda oson ochishingiz mumkin.

Shu bilan birga, Siz "MOBLISS" elektron to‘lov tizimi bilan hamkorlik qiluvchi Internet-magazinlar, telefon operatorlari, restoran, kafe, yoqilg‘i quyish shohobchalari, gazeta va jurnallardan xarid qilish yoki xizmatidan foydalanish uchun to‘lovlarni ham amalga oshirish

imkoniyatiga egasiz. Ushbu elektron to'lov tizimining o'ziga xos afzalliklarini quyidagilarda alohida ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Universal xizmat

O'z hisobingizni kunning istalgan vaqtida va mamlakatimizning istalgan burchagidan turib to'ldirish imkoni. Bunda sizning xizmat-ingizda elektron hamyoningizni to'ldirish uchun quyidagi usullar mavjud:

- «MOBLISS» to'lov tizimi dilerlari;
- «FAST PAY» to'lov tizimi dilerlari;
- Respublika bank tarmog'i yordamida;
- Respublika banklari plastik kartochkalari yordamida;
- «VISA» plastik kartochkalari yordamida.

Tezkorlik

Siz qaerda bo'lishingizdan qati nazar «MOBLISS» elektron to'lov tizimi hisob-kitoblarning hech qanday to'xtalishlarsiz bir necha soniya ichida amalga oshiriladi.

24/7 tartibida ishlovchi tezkor qo'llab-quvvatlash xizmati vositasida ushbu to'lov tizimi haqida har qanday savolga javob topishingiz mumkin.

Hammabop

«MOBLISS» tizimi bilan ishlash juda ham qulay, chunki buning uchun maxsus dastur ta'minoti o'rnatish, sanoqsiz sertifikatlar to'ldirish yoki yana bir qancha ovoragarchiriliklar shart emas. "Mobliss" elektron to'lov tizimidan ro'yxatdan o'tish va elektron hamyon ochish o'n daqiqaga ham bormaydi. Qolgan ishlarni esa texnikaning izmiga qo'yib berish mumkin. O'zingizning ilk elektron hamyoningizni yaratganingizdan so'ng to'lovlarni amalga oshirishda "Mobliss" elektron to'lov tizimining oddiyligi va qulayligiga ishonchingiz komil bo'ladi. Chunki hisobraqamingizga pul tushgan zahoti siz kompyuteringizdan yoki mobil telefoningizdan bir qancha tovar va xizmatlarni sotib olish imkoniga ega bo'lasiz.

Harakatchanlik

O'z elektron hamyoningizni Internetga ulangan har qanday kompyuterdan yoki GPRS tizimiga ulangan mobil telefoningizdan boshqarishingiz mumkin.

Xavfsizlik

Mijozlar mablag'ini ishonchli himoya qilish maqsadida, "Mobliss" elektron to'lov xizmati jahon talablariga javob beruvchi xavfsizlik tizimi asosida faoliyat ko'rsatadi. Tizim ruxsat etilmagan turli foydalanuvchilarning faoliyatini to'lik cheklaydi.

Sir tutilishi

“Nobliss” elektron to‘lov tizimining bosh qoidasi – mijoz haqidagi ma‘lumotlarning sir tutilishidir. Mobiliss uz mijozlari pullarini to‘liq saqlash uchun xizmat qiladi. Bu - har qanday sharoitda ham tizim foydalanuvchilari haqidagi ma‘lumotlarning, shuningdek, barcha pul o‘tkazmalari haqidagi axborotning sir saqlanishi demakdir.

Yangi texnologiyalarning kundalik hayotimizda qo‘llashdan pirovard maqsad iste‘molchilarning talablarini qondirish, ularga qulaylik yaratish va bu bilan ularga ozgina bo‘lsa-da, yordam berishdir. «MOBLISS» to‘lov tizimi ushbu maqsad yo‘lida sizlarga xizmat ko‘rsatishdan doimo mamnundir.

Agar shioringiz «Tezkor! Ommabop! Oson!» bo‘lsa, u holda, UPAY universal elektron to‘lov xizmati sizning doimo yoningizda bo‘lgan, tengi yo‘q yordamchingizga aylanadi.

Har bir mijoz uchun tanlash huquqi muhimdir. UPAYdan foydalanganda siz quyidagilarni amalga oshirishingiz mumkin bo‘ladi:

1. www.upay.uz orqali mobil operatorlar, internet-provayderlar, kommunal xizmat to‘lovlari, internet-do‘konlar saytlarida ham ro‘yxatdan o‘tmagan holda to‘lovni amalga oshirish imkoniyati bor. Buning uchun plastik kartochkangiz ma‘lumotlari va mobil telefon raqamingizning o‘zi kifoya.

2. Yoningizda kompyuter yo‘qmi? Unda mobil telefoningizdan 1400 raqamiga SMS yuborib, to‘lovni amalga oshirishingiz yoki *850# raqamiga USSD so‘rovini yuborishingiz mumkin.

ЕНИНГИЗДА КОМПЬЮТЕР ЙУҚМИ?

ТЕЛЕФОНИНГИЗДАН
SMS ЁКИ USSD СЎРОВИНИ
ЮБОРИШИНГИЗ МУМКИН.



*850#

SMS рақами




1400

USSD сўрови

УНИВЕРСАЛ ЭЛЕКТРОН
ТЎЛОВЛАР ХИЗМАТИ

WWW.UPAY.UZ | 150 60 06



3. Hozirgi kunda aksariyat mobil telefon foydalanuvchilari Android yoki iOS platformalarida ishlovchi telefonlarga ega. Aynan to‘lovlarda tezlik, qulaylik va zamonaviylikni ma‘qullaydiganlar uchun mobil ilova

mavjud. PlayMarket va AppStore orqali UPAY dasturini yuklab oling va pullaringizni zavq bilan sarflang.

ТЎЛОВЛАРДА ТЕЗЛИК, ҚУЛАЙЛИК ВА
МАЪҚУЛЛАЙДИГАНЛАР УЧУН

МОБИЛ ИЛОВА МАВЖУД




APP STORE
ДЕН ЮҚЛАБ ОЛИҒИ



GOOGLE PLAY
ДЕН ЮҚЛАБ ОЛИҒИ

УНИВЕРСАЛ ЭЛЕКТРОН
ТЎЛОВЛАР ХИЗМАТИ

WWW.UPAY.UZ | 150-60-06



4. «Avtoxabarнома» xizmatini sozlab olishingiz mumkin, tizim sizga u yoki bu to'lovlarni to'lash haqidagi SMS-xabarnomasini yuboradi.

ТИЗИМ СИЗГА У ЁКИ БУ
ТЎЛОВЛАРНИ ТЎЛАШ ҲАҚИДАГИ
СМС-ХАБАРНОМАСИНИ ЮБОРАДИ

"АВТОХАБАРНОМА"
ХИЗМАТИНИ СОЗЛАБ ОЛИШИҒИЗ МУМКИН




APP STORE
ДЕН ЮҚЛАБ ОЛИҒИ



GOOGLE PLAY
ДЕН ЮҚЛАБ ОЛИҒИ

УНИВЕРСАЛ ЭЛЕКТРОН
ТЎЛОВЛАР ХИЗМАТИ

WWW.UPAY.UZ | 150-60-06



5. Ish ko'p, telefon/Internet/turar-joy, kommunal xo'jaligi uchun haq to'lash yodingizdan ko'tarildimi? «Avtoto'lov» xizmati joriy to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ko'rsatilgan muddatda tizim sizni SMS-xabarnoma orqali boxabar etadi va SMS-tasdig'ingizdan so'nggina kerakli to'lovlarni amalga oshiradi.

6. Foydalanuvchilarda kommunal xizmatlar bo'yicha qarzlarni onlayn tarzda ko'rish imkoniyati bor.

КОММУНАЛ ХИЗМАТЛАР БУЙИЧА
ҚАРЗЛАРНИ ОНЛАЙН
ТАРЗДА ҚУРИШ ИМКОНИЯТИ БОР.




APP STORE
дан юкляб олинг



GOOGLE PLAY
дан юкляб олинг

УНИВЕРСАЛ ЭЛЕКТРОН
ТУЛОВЛАР ХИЗМАТИ

WWW.UPAY.UZ | 150-60-06



7. Amalga oshirilgan kommunal xizmatlar uchun to'lovlar tasdig'i sifatida saqlab olingan kvitansiya va elektron chekni zarur bo'lgan elektron pochta yoki messengerlar orqali yuborish funksiyasi mijozlar uchun yanada qulayliklar taqdim etadi.

АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТУЛОВЛАРНИ
ТАСДИГИ СИФАТИДА САҚЛАБ ОЛИНГАН
КВИТАНЦИЯ ВА
ЭЛЕКТРОН ЧЕК




APP STORE
дан юкляб олинг



GOOGLE PLAY
дан юкляб олинг

УНИВЕРСАЛ ЭЛЕКТРОН
ТУЛОВЛАР ХИЗМАТИ

WWW.UPAY.UZ | 150-60-06



UPAYni tanlang! Tanlovingiz to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiling!

Muhokama savollari

- O'zbekiston Respublikasi elektron to'lovlar tizimi.
- Jahon ETTlari.
- EHT rivojlanish istiqboli.
- EHT samaradorligining kriteriyasi.
- Mavjud muammolar tahlili.
- Taklif qilinishi mumkin bo'lgan yechimlar.

Ma'ruza 3

BANK TO'LOV TIZIMLARI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI BANKLARARO TO'LOV TIZIMI

MUNIS tizimining qisqacha ta'rifi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kliring to'lov tizimi: Qisqacha nomi: **MUNIS**. (Mejbankovskaya universalnaya nettingovaya informatsionnaya sistema).

«MUNIS» netting to'lov tizimi quyidagi maqsadlar uchun tashkil etilgan:

- Bank tizimini xizmat ko'rsatuvchilarning Billing tizimlari bilan hamkorligini ta'minlovchi yagona markaz yaratish;
- Bank tizimi bilan xizmat ko'rsatuvchilarning Billing tizimlari hamkorligini yagona standartlarini joriy etish;
- Aholi va biznesga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini optimallashtirish hamda hammabopligi va sifatini oshirish;
- Tijorat banklarining banklararo hisob-kitoblarni o'tkazishda javobgarligini oshirish va pul mablag'lardan samarali foydalanish;
- Tijorat banklarining hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Markaziy bankdagi vakillik hisob varag'ida katta miqdordagi mablag'larni ushlab turish zaruratini kamaytirish.

Asosiy xarakteristikalari

Tizim qatnashchilari:

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari;
Mos Billing tizimiga ega xizmat ko'rsatuvchilar.

Foydalaniladigan standartlar:

O'zaro hamkorlik rejimlari – «on-line», «off-line».

Tizimning ishchi parametrlari:

Foydalanlayotgan valyuta – milliy valyuta (sum);

Ish vaqti – sutkasiga 24 soat, haftasiga 7 kun.

Foydalaniladigan formatlar:

Pul mablag'larining o'lchov birligi – tiyin;

Son qiymati – guruhlarning ajratmalarisiz;

Sana formati – DD.MM. YYYY;

Vaqt formati –HH24:MI:SS.

Asosiy tamoyillari

O'zaro munosabatlar quyidagi talablarga muvofiq ravishda elektron to'lov hujjati asosida amalga oshiriladi:

- «MUNIS» tizimining elektron blanki asosida elektron to'lov hujjatini shakillantirish;

- To'lovlarni amalga oshirishda bank tizimi talablarini ta'minlash.
- To'lovlarni qabul qilishda xizmat ko'rsatuvchining Billing tizimi talablarini ta'minlash.

To'lovning elektron blankasi MUNIS tizimi tomonidan shakllantiriladi va to'lovning bank rekvizitlari, xizmat ko'rsatuvchining billing tizimi uchun lozim rekvizitlarni o'z ichiga oladi hamda MUNIS tizimi tomonidan berilgan unikal identifikatsion nomer bilan ta'minlanadi. Elektron to'lov bankasi bank tomonidan mos rekvizitlar bilan to'ldirilib va elektron raqamli imzo bilan imzolanganda elektron to'lov hujjati bo'ladi.

To'lovlarni amalga oshirish va banklarning talab va majburiyatlarini hisobini yuritish elektron to'lov hujjati asosida amalga oshiriladi.

Kliring "Yagona vakillik hisob varag'i – hisob-kitob Markazi" axborot tizimi orqali banklarning netto-pozitsiyalari hisob-kitoblari asosida amalga oshiriladi.

O'zaro aloqaning asosiy metodlari

To'lovchini identifikatsiyalash metodi va elektron to'lov blankasini olish

Maqsad: Elektron to'lov blankasini olish. To'lovning elektron to'lov blankasi quyidagi ma'lumotlar asosida MUNIS tizimi tomonidan shakllanadi:

to'lovchini identifikatsiyalash uchun bank yuborgan ma'lumotlar;
to'lovchini identifikatsiyalash uchun billing tizimidan olingan ma'lumotlar.

Foydalanish: Bankning ABT yoki MBT to'lovchining ma'lumotlaridan foydalanib MUNIS tizimida to'lovchini identifikatsiyalash uchun «on-line» rejimda so'rovnoma jo'natadi.

Elektron to'lov hujjati asosida to'lovni amalga oshirish metodi

Maqsad: To'lovni amalga oshirish.

Foydalanish: ABT «on-line» rejimda MUNIS tizimiga elektron to'lov blankasi asosida shakllangan ETXni jo'natadi.

Xizmat ko'rsatuvchining billing tizimini mablag' tushganligi haqida ogohlantirish metodi

Maqsad: Billing tizimini billing tizimlarini mablag' tushganligi haqida tezkor ogohlantirish.

Foydalanish: MUNIS tizimi to'lovchi bankdan xizmat ko'rsatuvchining billing tizimiga kelgan ETXni jo'natadi.

Oluvchi bankni mablag‘ tushganligi haqida ogohlantirish metodi
Maqsad: Oluchi bank va uning mijozini mablag‘ tushganligi haqida tezkor ogohlantirish.

Foydalanish: MUNIS tizimi to‘lovchi bankdan oluvchi bankga kelgan ETXni «off-line» rejimda jo‘natadi.

Registratsiya, Qo‘shimchalar kiritish, aktivlashtirish va deaktivlashtirish jarayonlari xizmat ko‘rsatuvchilar tomonidan MUNIS tizimining vakolatli operatoriga yozma murojati ko‘rinishida boshlanadi.

MUNIS tizimi ma‘lumotnomalari bo‘yicha axborotlar taqdim qilish

Banklar ABTLariga ma‘lumotli axborotlar taqdim qilish MUNIS tizimining servisiidir. Ma‘lumotli axborotlar olish uchun so‘rovnoma MUNIS tizimiga «on-line» rejimda jo‘natiladi. Ma‘lumotli axborotlarni MUNIS tizimidan olish «off-line» rejimda amalga oshiriladi.

MUNIS tizimiga ulanish

MUNIS tizimiga ulanish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- tizimga birlamchi ulanish;

- Kliring sessiyasiga ulanish (kelgusida – tizimga ulanish).

Bank va xizmat ko‘rsatuvchilarni birlamchi ulanishini amalga oshirish uchun MUNIS tizimi bilan o‘zaro bog‘lanish uchun lozim texnik shart-sharoitlar bo‘lishi zarur. MUNIS tizimining kliring sessiyasiga ulanish to‘lovlarni tashabuskori bo‘lgan banklar uchun majburiydir. Kliring sessiyasiga ulanish ulanishga so‘rovnoma yuborish va MUNIS tizimidan olingan javobni qayta ishlash orqali amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatuvchilarni Kliring sessiyasiga ulanishi aniq vaqt orolig‘idagi MUNIS tizimining xizmat ko‘rsatuvchlar billing tizimiga so‘rovnomalari orqali aniqlanadi.

MUNIS tizimining biznes-jarayonlari ta‘rifi

MUNIS tizimida quyidagi biznes-jarayonlar amalga oshirilgan:

- Tizimga ulanish;
- O‘zaro aloqalar uchun ma‘lumotnomalar tizimini yangilash;
- To‘lovlarni amalga oshirish;
- Kliringni amalga oshirish;
- Banklardagi pozitsiyalarning yopilishi.

MUNIS tizimi ikki rejimda – «on-line» va «off-line» faoliyat yuritadi.

MUNIS tizimi «on-line» rejimida bank ABTLaridan to‘lov va so‘rovnomalarni qabul qiladi va ularni qayta ishlaydi. Ushbu axborot

almashinuvi XML formatda, ushbu hujjat talablariga muvofiq himoyalangan aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi.

MUNIS tizimi «off-line» rejimda banklar ABT va billing tizimlariga mos to'lov hujjatlari reestrlerini shakillantiradi va jo'natadi. O'zaro almashinuv himoyalangan aloqa kanallari orqali arxivlangan tekst fayllari ko'rinishida amalga oshiriladi.

Banka qatnashchisini tizimga ulanishi

Bank qatnashchisi tomonidan MUNIS tizimiga ulanish majburiydir va har bir kliring sessiyasi boshlanishida amalga oshiradi. Jarayon «on-line» rejimda amalga oshiriladi va quyidagi harakatlari o'z ichiga oladi:

- MUNIS tizimiga ulanish so'rovnomasini jo'natish;
- MUNIS tizimidan kelgan so'rovnomaning javobini qayta ishlash.

Ma'lumotnoma axborotlarini qayta ishlash

Ma'lumot noma axborotlarini yangilash bank ABT yoki xizmat ko'rsatuvchining billing tizimining kliring sessiyasi davomidaga so'rovnomalari asosida amalga oshiriladi va shartli zaruriydir.

Ma'lumot noma axborotlarini yangilash jarayoni quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- MUNIS tizimiga yangilash bo'yicha «on-line» rejimda so'rovnoma yuborish;
- MUNIS tizimidan ma'lumotnomalar reestrini «off-line» rejimda yuborish.

To'lovlarni amalga oshirish

To'lovlarni amalga oshirish jarayoni ishtirokchi bank tomonidan faqtgina MUNIS tizimiga muvaffaqiyatli ulanganida amalga oshiriladi. To'lovni amalga oshirish ikki bosqichda bajariladi:

Bank ABTdan MUNIS tizimiga to'lovchi rekvizitlari bilan xizmat ko'rsatuvchi tomonidan to'lovchini identifikatsiyalash uchun so'rovnoma jo'natish va shakillantirilgan elektron to'lov blankasini olish; Olingan elektron blank asosida elektron to'lov hujjatini shakillantirish va yuborish hamda MUNIS tizimidan to'lovni o'tkazilganligi yoki braklanganligi tasdig'ini olish.


Kliringni o'tkazish va banklardagi pozitsiyalarni yopish

Kliring jarayonini o'tkazish MUNIS tizimi orqali amalga oshiriladi. Jarayon Kliring kuni davomida bir necha bor (aniq bir vaqtda): Kliring sessiyasi yopiq holda amalga oshirilishi mumkin. Jarayon amalga oshirilayotganda qatnashchi bank tomonidan ixtiyoriy so'rovlar taqiqlanadi. Jarayon quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- **Netto-hisob-kitob**, amalga oshiriladi ya'ni har bir qatnashchi-bank uchun yuborilgan va qabul qilingan to'lov hujjatlarini inobatga olgan holda toza pozitsiya (netto-pozitsiya) hisoblanadi;
 - Hisob-kitob to'lov tizimi orqali to'g'ridan to'g'ri **debet** va **kredit** operatsiyalari yordamida qatnashchi-banklarning **netto-pozitsiyalarini yopilishi** hisob-kitobi amalga oshiriladi;
 - Ichki operatsiyalar yordamida har bir qatnashchi – banklar bo'yicha talab va majburiyatlari bo'yicha hisobraqamlari saldo qilinadi.
- Ushbu harakatlardan so'ng joriy kliring sessiyasi yopilgan hisoblanadi va yangi sessiya ochiladi, kliring kuni yakunlanganiga qadar shunday davom etadi.

MUNIS tizimining o'zaro aloqa sxemasi

MUNIS tizimining qatnashchi-banklar, hizmat ko'rsatuvchilarning Billin tizimlari va banklararo to'lov tizimi bilan o'zaro aloqa sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan:



Axborot almashinuv texnologiyasi

MUNIS tizimi XML standartidan foydalangan holda Web-servis texnologiyasi asosida yaratilgan.

Tizim qatnashchilari va ularning o'zaro munosabat metodlari muayyan parametr va hususiyatlar yordamida tasvirlangan obyektlar ko'rinishida keltiriladi. O'zaro munosabat chog'ida tizim mazmuni ya'ni parametr va hususiyatlar to'plamili tizim yoki tizim funksionali qatnashchisining biron bir bayonini tasvirlovchi obyektlarga tayanadi. Obyekt parametr va hususiyatlari XML formatda tasvirlanadi. Bunda har bir parametr yoki hususiyat alohida XML-tipidagi tegdir. Obyektlar MUNIS tizimi funksiyalari bajarilish chog'ida foydalaniladi. Ba'zi MUNIS tizimi obektlari kolleksiya, ya'ni shunday obektlar to'plami kabi ishlatilishi mumkin.

№	Jarayonni tavsifi:	Rejim
1	Bankning MUNIS tizimiga ulanishi (har bir kliring sessiyasi boshida);	on-line
2	MUNIS tizimiga to'lovchini identifikatsiyalash uchun so'rovnomani yuborish So'rovnomani o'z ichiga oladi: tshlovchining bank rekvizitlari, xizmat ko'rsatuvchining billing tizim uchun identifikatsiya ma'lumotlari;	on-line
3	Xizmat ko'rsatuvchining billing tizimda identifikatsiyalash uchun so'rovnomani yuborish;	on-line
4	Billing tizimidan to'lovchiga xususidagi ma'lumotlarni qabul qilish. Javob o'z ichiga oladi: xizmat ko'rsatuvchining (yoki uning bo'limi) bank rekvizitlari, to'lovchi hususida ma'lumotlar;	on-line
5	To'lovchini identifikatsiyalash uchun Bank so'rovnomasiga javob. Javob o'z ichiga oladi: to'lovning elektron blankasi (unda to'lovchi, oluvchilarning bank rekvizitlari va xizmat ko'rsatuvchining to'lovchi haqidagi ma'lumotlar);	on-line
6	MUNIS tizimida to'lovni o'tkazish bo'yicha so'rovnomani jo'natish. So'rovnomani to'lovning elektron blankasi asosida shakillantirilgan elektron to'lov hujjatini o'z ichiga oladi;	on-line
7	Bankning to'lovni o'tkazish bo'yicha so'rovnomani tasdiq/braklash javobini yuborish;	on-line
8	Oluvchi bankga kliring sessiyasi davomida mablag'ni kirim qilish bo'yicha elektron to'lov hujjatini yuborish;	off-line
9	Xizmat ko'rsatuvchining billing tizimiga mablag' tushgangani haqidagi elektron to'lov hujjatini yuborish;	on-line
10	"Hisob-kitob Markazi" banklararo to'lov tizimiga netto pozitsiya hisob-kitobi natijalariga asosan shakillangan kredit/debet memorial orderlarni yuborish;	off-line
11	Kliring sessiyasi yakunida har bir bank uchun ushbu sessiya davomida MUNIS tizimidan muvaffaqiyatli o'tgan kiruvchi va chiquvchi elektron to'lov hujjatlari reestrini yuborish;	off-line
12	Kliring sessiyasi yakunida har bir xizmat ko'rsatuvchiga billing tizimida muvaffaqiyatli qabul qilingan va qilinmagan elektron to'lovlar reestrini yuborish.	off-line

Axborot almashinuv obyektlari tafsifi

Axborot almashinuv obyektlari XSD formatda XML-tipida tafsiflanadi. Har bir obyekt XML-tipidagi teglar to'plamidir.

MUNIS tizimini xizmat ko'rsatuvchilarning Billing tizimi bilan o'zaro munosabatlari

MUNIS tizimiga yangi xizmat ko'rsatuvchining ulanishi uchun bir necha qoidalarning bajarilishi lozim:

- to'lov turlari reestirini taqdim etish, mavjud bo'lsa;
- xizmat ko'rsatuvchiga yuboriladigan ma'lumotlar ro'yxatining ma'lumotnomasi haqidagi axborotni taqdim etish;
- xizmat ko'rsatuvchidan qabul qilinadigan ma'lumotlar ro'yxatining ma'lumotnomasi haqidagi axborotni taqdim etish;
- to'lovchini identifikatsiyalashda javob uchun mos avtomatlashtirilgan metodlarga ega bo'lish;
- to'lovlar bo'yicha ma'lumot olish uchun mos avtomatlashtirilgan metodlarga ega bo'lish.

Yuqorida keltirilgan shartlarga kiritiladiga barcha o'zgartirishlar xizmat ko'rsatuvchi tomonidan MUNIS tizimining vakolatli Operatoriga yozma murojaati orqali amalga oshiriladi.

«Off-line» rejimida o'zaro munosabatlarni tavsifi

Axborotlar yuborish tartibi

MUNIS tizimi «off-line» rejimida ham bank ABT va xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimlari bilan informatsion fayl ko'rinishida shakillantirilib maxsus paket fayliga arxivlangan reestri yuborish jarayonida o'zaro munosabatda bo'la oladi. To'lov hujjatlarini o'z ichiga olgan informatsion fayllar ERI bilan imzolanadi.

Informatsion fayllar ikki xil formatda bo'ladi:

- XML format;
- Tizimlashtirilgan matnli fayl.

Informatsion fayllarning formatini bank ABT MUNIS tizimiga ulanish vaqtida aniqlaydi. Informatsion fayllar quyidagi talablarga javob beradi:

- Foydalaniladigan kodirovka - Windows 1251;
- Informatsiyalar quyidagi formatlarda: XML format; tizimlashtirilgan matnli fayl;
- Paket fayllarni yaratish uchun arxivatoradan foydalanish.
- Foydalaniladigan arxivator - «ARJ» versiya 3.03;
- Paket fayllarning nomidagi qo'shimcha (kengaytma) **DMG** formatda bo'lishi talab etiladi, bu yerda:

D – kun (1,2..9,A,V,S A-*,V);

M – oy(1,2..9,A,V,S);

G – yil (2001-1, 2002-2, ...,2010-A, 2011-V,...);

- Kun davomidagi paket fayllarning (reyslarni) nomerlash **RRR** formatda, bu yerda:

RRR – 001,002,..., 09A, ..., 1AZ, ...,ZZZ;

Bir sutkadagi (24 soat) reyslarning maksimal soni 46 665.

- Faylning nomlanishi talablari quyidagi formatlar asosida aniqlanadi:

№	Yo'nalish	Fayl nomi	Belgilar rashifrovkasi	
			MB	Paket faylning identifikatori
1	MUNIS tizimidan bank ABT	MBBBRRR.D	III	Fayl identifikatori
			T	informatsion fayl format: X - XML, S
			VVV	Bank kodi (ma'lumotnoma №14)
			0000	Bank to'lov markazi kodi (ma'lumotnoma №12)
			RRR	Faylning tartib raqam (reys)
			MI	Paket faylning identifikatori
			sh	Fayl identifikatori
2	MUNIS tizimidan Billing	MIPPPRRR.DM	T	informatsion fayl formati: X - XML, S – tizimlashgan (strukturirovanniy)
			rrrr	Xizmat ko'rsatuvchining kodi
			RRR	Faylning (reys) tartib raqami

XML formatdagi informatsion faylda ma'lumotlar XML formatdagi matnli ma'lumotlar ko'rishida bo'ladi.

Informatsion tizimlashtirilgan (strukturlashgan) fayl ta'rifi

Matnli fayldagi ma'lumotlar qatorma qator joylashgan. Har bir qator <VK> va <PS> simvollar bilan tugashi lozim. Qatordagi har bir rekvizit razdelitelem «~» (simvol kodi 29) ajratuvchi bilan ajratiladi.

MUNIS tizimida ishni tashkil etish

Banklardagi zaruriy texnik shartlar

Bankni MUNIS tizimiga ulash uchun bank ABTsida quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- SOAP xabarlarini yuborish va qayta ishlash metodlarining mavjudligi;
- MUNIS tizimi serveri bilan himoyalangan aloqa kanali bilan ulanish imoniyatining mavjudligi;
- ERI qo'yish va tekshirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotning mavjudligi.

Xizmat ko'rsatuvchilarning MUNIS tizimiga ulanish uchun zaruriy texnik shartlar

Xizmat ko'rsatuvchilarning MUNIS tizimiga ulanish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- SOAP xabarlarini yuborish va qayta ishlash metodlarining mavjudligi;
- MUNIS tizimi serveri bilan himoyalangan aloqa kanali bilan ulanish imoniyatining mavjudligi;
- ERI qo'yish va tekshirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotning mavjudligi.

Tijorat banklarida ishni tashkil etish

MUNIS tizimiga ulash uchun bankda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- Bank hisob-kitob markazida 19997 va 29896 balans hisob-varaqlarida hisobraqamlar ochilishi lozim:

Hisobraqam	Hisobraqamning maqsadi
19997000K000VVVVV001	Bank talablari uchun hisobraqam
29896000K000VVVVV001	Bank majburiyatlari uchun hisobraqam

Bu yerda VVVVV – bank hisob-kitob markazi kodi.

MUNIS tizimida ishni tashkil etish

MUNIS tizimi bilan avtomatlashgan holda ma'lumot almashinuvni tashkil etish.

MUNIS tizimida banklar va hisob-kitob markazi bilan o'zaro unosabatlar odam ishtirokisiz avtomatlashgan holda amalga oshiriladi.

Majburiyat va talablarni hisobini yuritish uchun MUNIS tizimida har bir bank uchun alohida 17480 va 27480 balans hisobvaraqlarida hisobraqamlar ochiladi:

Hisobraqam	Hisobraqamning maqsadi
17480000K000VVVVV	Bank talablari uchun hisobraqam
27480000K000VVVVV	Bank majburiyatlari uchun hisobraqam

Bu yerda, VVVVV – bank hisob-kitob markazi kodi.
Kliringni amalga oshirish uchun MUNISda quyidagi hisobraqamlar ochiladi:

Hisobraqam	Hisobraqamning maqsadi
17480000K000000020	MUNISda Bank talablari uchun hisobraqam
27480000K000000020	MUNISda Bank majburiyatlari uchun hisobraqam

Bu yerda, 00002 – MUNIS to‘lov tizimining kodi.

Hisob-kitob markazida ishni tashkil etish

Markaziy bankning hisob-kitob markazida kliringni amalga oshirish uchun quyidagi hisobraqamlar ochiladi:

Hisobraqam	Hisobraqamning maqsadi
11003000K000000020 01	Markaziy bankning hisob-kitob Markazida ochilgan vakillik hisobraqami – Vostro, overdraft
21304000K000000020 01	Markaziy bankning hisob-kitob Markazida ochilgan vakillik hisobraqami – Vostro

Bu yerda, 00002 – MUNIS to‘lov tizimining kodi.

Termin

Termin	Soderanie
Netting	Raschet netto pozitsiy po vstrechnym platejam soglasno summam, otrajennym v raschetnyx dokumentax dvux i bolee uchastnikov raschetov na netto-osnove, v sootvetstvi s poryadkom provedeniya raschetov.
Kliring	Protsess sbora, obrabotki, podtverjdeniya platejey i podscheta vzaimnyx mnogostoronnix chistyx pozitsiy uchastnikov sistemy.
Kliringovaya sessiya	Ustanovlennyy v sisteme period vremeni, v techenie kotorogo osushchestvlyayetsya kliring. Kliringovaya sessiya zavershaetsya okonchatelnym raschetom po chistym pozitsiyam uchastnikov sistemy.

Kliringovyy den	Ustanovlennyy v sisteme period vremeni, v techenie kotorogo osushchestvlyayetsya kliring. Kliringovyy den mojet sostoyat iz odnoy ili bolee kliringovykh sessiy.
Netto-raschet	Zachet vzaimnykh trebovaniy i obyazatelstv. (takje nazyvayut kliringom ili netgingom).
Netto-pozitsiya	Vychislennaya na opredelenny moment vremeni raznitsa mejdu summoj na zachislenie denezhnykh sredstv uchastnika raschetov i summoj na spisanie denezhnykh sredstv so scheta dannogo uchastnika
Pryamaya debetovaya	Predvaritelno, razreshennoe debetovanie bankovskogo scheta platelshchika, initsiirovannoe poluchatelem
ABS banka	Avtomatizirovannaya bankovskaya sistema kommercheskogo banka
Bank-uchastnik	Bank, kotoryy osushchestvlyayet plateji cherez platejnyuyu sistemu MUNIS.
Platelshchik	Fizicheskoe ili Yuridicheskoe liso, osushchestvlyayushchee oplatu uslug cherez kommercheskie banki ili distansionnoe obslujivanie kommercheskix bankov.
Postavshchik uslug	Gosudarstvennaya ili kommercheskaya organizatsiya, predstavlyayushaya svoi uslugi
Billing	Kompleks protsessov i resheniy Postavshchika uslug, vklyuchayushiy v sebya: - sbor informatsii ob ispolzovanii uslug; - tarifkatsiyu uslug; - vystavlenie schetov potrebitelyam uslug; - obrabotku platejey i t.d.
Billingovaya sistema	Prikladnoe programnoe obespechenie podderjki biznes-protsessov billinga. Avtomatizirovannaya sistema ucheta Postavshchika uslug.
Litsevoy schet potrebitelya	Litsevoy schet platelshchika v Billingovoy sisteme Postavshchika uslug. Primer: nomer schetchika, INN v sisteme Gosudarstvennogo nalogovogo komiteta i t.d.
Edp	Elektronnyy platejnyy dokument
ESP	Elektronnaya sifrovaya podpis
EBP	Elektronnyy blank plateja
DBO	Distansionnoe bankovskoe obslujivanie.
ODB	Operatsionnyy den banka
XML	Rasshiryaemyy yazyk razmetki, prednaznachenny dlya xraneniya i peredachi strukturirovannykh dannykh
XSD	Yazyk opisaniya struktury XML dokumenta
WSDL	Yazyk opisaniya vneshnix interfeysov Web-servisa na baze XML
SOAP	Protokol obmena soobshcheniyami na baze XML
Interfeys	Granitsa razdela dvux vzaimodeystvuyushix sistem ili programm,

Termin	Soderjanie
	opredelyonnaya ix xarakteristikami, xarakteristikami soedineniya, signalov obmena i t. p.
Web-adres	Posledovatelnost simvolov, identifikatsionnaya abstraktnyy ili fizicheskiy resurs.
Web-servis	Identifikatsionnaya Web-adresom programmnyaya sistema so standartizirovannymi interfeysami, dlya obmena dannymi mejdurazlichnymi sistemami ili programmami. Realizatsiya absolyutno chetkix interfeysov obmena dannymi mejdurazlichnymi sistemami ili programmami.
Request	Zapros k Web-servisu ot vneshney sistema.
Response	Otveta na zapros posle obrabotki Web-servisom
Upolnomochennyy Operator sistema MUNIS	Glavnyy sentr Informatizatsii, upolnomochenny zaklyuchat dogovora na podklyuchenie k sistema MUNIS i obespechivayushiy bespereboynoe funktsionirovanie sistema MUNIS

Muhokama savollari

MUNIS to'lov tizimi tasnifini bering.

MUNIS to'lov tizimi ishlash prinsipi nimalardan iborat?

MUNIS to'lov tizimi xavfsizlik masalalari qanday amalga oshiriladi?

4-Ma'ruza
WESTERN UNION PUL O'TKAZMALARI.
AGENT TO'LOV TIZIMLARI. INTERNET-BANKING
Internet-Banking Bilan Tanishish

Bank plastik kartochkalari bozorining rivojlanish tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tomonidan qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlar ushbu to'lov vositasining soni ko'payishi, to'lov aylanmasining hajmi oshishi hamda mazkur tizim infratuzilmasi rivojlanishiga zamin yaratdi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-son Qarori, Prezidentimizning 2006-yil 3-avgustdagi "Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-433-son, 2010-yil 19-apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-son, 2010 yil 26 noyabrdagi "2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-son Qarorlari respublikada plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirishga huquqiy asos yaratdi. Ana shu huquqiy asos tufayli yurtimizda plastik kartochkalar bozorida yuqori darajadagi siljish kuzatildi: 2004-yil holatiga ularning soni 406 mingta bo'lgan bo'lsa, 2014-yil 1-yanvar holatiga kelib 11 068 mingtani tashkil qildi, ya'ni 27,3 marotaba o'sish kuzatildi. Shuningdek, ushbu kartochkalar asosida amalga oshirilgan transaksiyalarning hajmi 2004 yilda 0,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014-yil 1-yanvar holatiga 16 307,5 mlrd so'mga yetdi, bu esa tahlil etilayotgan davrda transaksiyalarning 163 075 marotaba oshganligidan dalolat beradi.

Kartochkali to'lov tizimlarining infratuzilmasiga kelsak, savdo va hisob-kitob shoxobchalarining terminallar bilan ta'minlanganlik darajasi 2004-yilda 2 782 tani, 2014-yil 1-yanvar holatiga 129 679 tani tashkil qildi (46,6 marotaba oshgan), bankomat va infokioskalarning soni esa tegishli tarzda 151 tadan 1733 taga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi PQ-1325-son Qaroriga asosan aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi quyidagi chakana savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida to'lov terminali majburiy o'rnatilishi lozim:

- aviatsiya va temir yo'llar pattalarini sotish kassalari;
- avtovokzal va avtostansiyalar kassalari;
- avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari;
- mehmonxonalar;
- kredit tashkilotlari (mikrokredit tashkilotlari, lombardlar), sug'urta tashkilotlari va moliya bozorining boshqa subyektlari;
- turg'un savdo shoxobchalari, shu jumladan, dorixonalar (egallab turgan maydoni o'lchamidan qat'i nazar);
- umumiy ovqatlanish obyektlari;
- uy-joy-kommunal, shuningdek, telefon aloqa xizmatlari, shu jumladan, uyali aloqa telefonlari xizmatlari uchun aholidan to'lovlarni qabul qilish shoxobchalari;
- avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylari;
- aloqa bo'limlari;
- maishiy xizmat ko'rsatish hamda madaniy-ommaviy va tomosha tadbirlari o'tkaziladigan obyektlar;
- aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar.

Markaziy Bank tomonidan 2012 yil 21 aprelda "O'zkart" banklararo chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risida alohida Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 30-mayda 2369-son bilan ro'yxatga olingan) ishlab chiqildi va bu, o'z navbatida, banklararo plastik kartochkalar orqali bo'ladigan har bir to'lovning o'z vaqtida o'tishini, xavfsizligini ta'minlash va mijozlarga yanada qulay sharoit yaratib berishni ta'minladi. Operatsiyalar narxining arzonligi, bajarilish tezligining yuqoriligi, masofadan turib to'lovlarni amalga oshirish mumkinligi elektron pullarning muhim afzalliklari hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2010-yil 19-apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori mamlakatimizda elektron to'lov tizimini yangi bosqichga ko'tardi. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi va Yagona umumrespublika Protsessing markazi tomonidan Uzkart banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan tijorat banklari bilan birgalikda onlayn rejimida ishlaydigan «Smart-Vista» EMV texnologik platformasi joriy etildi.

Bu turdagi plastik kartochkalar orqali mijoz o'z kartochka hisobvaraqlarini real vaqt ichida boshqara oladi. Bugungi kunda onlayn rejimida ishlaydigan plastik kartochkalar soni 8 milliondan oshgan. Bu

mamlakatimizda barcha banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalarining yarmi deganidir.

2013-yil sentyabr oyida Yagona umumrespublika protsessing markazi va Click kompaniyasi hamkorligida mobil-banking tizimi ishga tushirildi. Xizmatga ulanish uchun onlayn plastik kartochka foydalanuvchisi istalgan bank yoki infokioskda Uzkart SMS-axborot berish xizmatini mobil telefoniga ulashi, so'ngra bepul USSD so'rovini jo'natib, o'z plastik kartochkasini tizimga bog'lashi lozim. Shundan keyin foydalanuvchi mobil telefon yoki internet orqali nafaqat uyali telefon, internet, televidenie va kommunal xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishi, balki uydan chiqmagan holda internet do'konlardan turli mahsulotlarni xarid qilishi mumkin.

Click tizimi foydalanuvchilarga USSD, SMS va internet portallari vositasida mablag'ni bir hisobdan boshqa hisobga o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazilgan mobil raqami hisobini avtomatik to'ldirish imkonini beradigan «avtoto'lov»ni faollashtirish, to'lovlar tarixini ko'rish, bank hisobvaraqlari holati to'g'risida SMS xabarlar olishda beminnat dastyor bo'ladi.

Hozirgi paytda ushbu tizim orqali uy va mobil telefon, internet xizmatlari uchun to'lovlardan tashqari 52 turdagi internet servis, 20 turdagi savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari bilan hisob-kitobni amalga oshirish mumkin. Xususan, «Avtech», «UZTE» kompaniyalari tomonidan kompyuter va mobil telefonlarini xarid qilish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lganlarga ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi «Gosuslugi.uz» xarajatlarini to'lash mumkin.

Aloqa, internet, televidenie, kommunal xizmatlar, soliq, jarima hamda boshqa to'lovlarni, shuningdek, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan tatbiq etilgan «Sms-To'lov» (UPAY), «National Engineering Technologies» kompaniyasi tomonidan joriy qilingan MBANK elektron to'lov tizimlari yordamida ham real vaqt rejimida amalga oshirish mumkin.

Elektron hisob-kitoblar vositachilik haqisiz, sutkaning har qanday vaqtida amalga oshirilishi aholiga katta qulaylik yaratmoqda. Bunday imkoniyatlar bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan (bank-mijoz, internet banking, mobil-banking, SMS-banking va boshqalardan) foydalanuvchilar sonining oshishiga xizmat qilmoqda. Mobil-banking hamda SMS-banking xizmatidan foydalanuvchilar soni o'tgan

yildagiga nisbatan ikki barobar o'sdi. Click xizmati mijozlari bir milliondan oshib ketdi.

Mamlakatimizda elektron to'lov mexanizmlarining takomillashirilishi elektron savdo imkoniyatlarini yanada faollashtirish imkonini bermoqda. Bu tovarlar aylanishi, pul muomalasini yanada tezlashtirish, bozorlarning ochiqqligini oshirishga, pirovardida, xalqimiz turmush darajasining yanada yaxshilanib, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Internet-banking xususiyatlari

O'zbekiston Markaziy banki yaqinda Milliy matbuot markazida «Zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzuida matbuot konferensiyasi o'tkazdi.

Markaziy bankning To'lov tizimlari va axborotlashtirish departamenti direktorining o'rinbosari Ulug'bek Mahmudov hamda Pul muomalasi departamenti direktorining o'rinbosari Faxriddin Boboyev bank sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni haqida jurnalistlarga axborot berdilar.

Ularning taqdimotida elektron to'lovlarni rivojlantirishga alohida o'rin berildi. Bugungi kunda O'zbekistonda «Uzpaynet», «SMS-To'lov», «Internet-banking», «SMS-banking», «Mobil banking», «Bank-Mijoz» to'lov tizimlari ishlab turibdi. Bular, eng avvalo, tadbirkorlikni, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishga yaqindan yordam bermoqda. Bugungi kunda «Bank-Mijoz» va «Internet-banking» xizmatlaridan 44 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti foydalanmoqda. «Mobil banking» (wap-banking) mamlakatimiz banklarining 107 mingdan ortiq mijoziga xizmat ko'rsatmoqda. Joriy yilning birinchi choragida bunday xizmatlardan foydalanuvchilar soni 50 foizga ko'paydi.

Bir kecha-kunduzda «Uzpaynet» tizimi orqali 2,5-3 million transaksiyalar o'tmoqda. «SMS-To'lov» bir qancha xizmatlar haqini mobil telefon orqali plastik kartochkalar bilan to'lash imkoniyatini ta'minlamoqda. Har bir mijozga elektron raqamli imzo beriladi. Bu imzo foydalanuvchining autentifikatsiyasini hamda uni mablag'laridan ruxsatsiz foydalanilishidan himoya etishni ta'minlaydi.

Matbuot konferensiyasi tashkilotchilari qayd etib o'tganidek, bugungi kunda O'zbekistonda 1 466 ta infokiosk va bankomat o'rnatilgan. Iste'molchilar ularning yordamida xarajatlarga kartochkasidan qilingan mablag' sarfiyoti haqida ko'chirma olishi, kommunal xizmatlar uchun va aloqa korxonalarini xizmatiga haq to'lashi, DUET hisobvarag'idan plastik

kartochkaga mablag' tushirishi, plastik kartochkadagi balansni bilib olishi mumkin.

Yaqin-yaqinlargacha «elektron hamyonlar»dan nolib kelgan odamlar ham endilikda uni qulay va ishonchli to'lov vositasi ekanligiga hamma yerda ishonch hosil qilmoqdalar. Mamlakatimiz banklari tomonidan 9,7 milliondan ortiq plastik kartochkalar chiqarildi. Ularning yordamida o'tgan yili qariyb 8,7 trillion so'mlik naqd pulsiz hisob-kitob qilindi. Ular «Uzkart» tizimiga birlashtirilgan. Bu esa bitta terminalning o'zida turli banklar chiqargan kartochkalardan to'lov qabul qilish imkonini bermoqda.

«Uzkart» tizimi 2015-yilga qadar DUET tizimlaridan on-line tizimlariga to'liq o'tishni amalga oshirdi. DUET kartochkasida to'lov sizning plastik kartochkangizga o'tkazilgan pul hisobidan amalga oshirilsa, on-line tizimida pul to'g'ridan-to'g'ri sizning bankdagi hisob-kitob varag'ingizdan o'tkazib olinadi. Hozircha ular parallel tarzda faoliyat ko'rsatmoqda, ayni bir vaqtda bir tizimdan ikkinchisiga bosqichma-bosqich o'tish amalga oshirilayotir. On-lineda to'lov DUETdagidan farqli ravishda Internet orqali va aloqa kanali orqali amalga oshiriladi. Terminalga ulangan modem bank serveri bilan aloqani ta'minlaydi, serverda esa operatsiyalar amalga oshiriladi.

Aholini xarid uchun haqni on-line yo'li bilan to'lash imkoniyatini ta'minlash uchun sotuvchi «Uzkart» bilan ishlovchi terminalning dasturiy ta'minotini o'zgartirishi kifoya. Buning uchun bankka borishning, terminal topshirishning hojati yo'q. Aloqa kanali va Internet orqali bank serveriga apparat ulangani hamoni dasturiy ta'minot o'z-o'zidan o'zgaradi va terminal DUET tizimi kartochkalari bilan ham, on-line tizimi kartochkalari bilan ham bema'lol ish olib boraveradi.

Hozirgi paytda on-line tizimining rivojlanishiga bir qancha muammo, xususan aloqa kanali imkoniyatlari bilan bog'liq ravishda sekin ishlash, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida to'lovlarni «Uzkart» plastik kartochkalaridan qabul qilishni asossiz ravishda rad etish hollari, yangi plastik kartochkalar bilan ishlaydigan savdo nuqtalari soni yetarli emasligi singari muammolar to'g'anoq bo'lmoqda.

Markaziy bank on-line tizimi aloqa tarmoqlariga bevosita bog'liqligini inobatga olib, Davlat aloqa va axborotlashtirish qo'mitasi bilan birgalikda 24 000 ta modem sotib oldi va bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Toshkentda shuningdek, optik-tola tarmoqlarini yo'lga qo'yish ishlari ham olib borilmoqda – bunday tarmoqlar orqali ma'lumotlar uzatish tezligi anchagina yuqoridir. Elektron to'lov tizimlarini ularning faoliyat

sohasini kengaytirish hamda yurtimizdagi banklarda yangi xizmatlarni joriy etish orqali yanada rivojlantirish rejalashtirilmogda.

Muhokama savollari

Internet-banking ishlash prinsipi nimalardan iborat?

Internet-banking xususiyatlarini sanab o'ting.

5-Ma'ruza

ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHORALARI

Elektron to'lov tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash vositalari

Elektron tijorat tizimini respublika va xalqaro miqyosda yuritishni va rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari va omillari; elektron tijorat tizimining imkoniyatlari va afzalliklari; elektron tijorat modellari; elektron tijorat rivojlanishining me'yoriy-huquqiy bazasi; elektron raqamli imzo; elektron tijoratning axborot, dasturiy-texnik ta'minoti; elektron tijorat xalqaro standartlari; O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratning holati; elektron tijorat sohasida standartlashtirish, sug'urta, soliqlik tizimi; elektron tijorat sohasida sertifikatsiya va litsenziyalash; konvertatsiya; elektron tijoratda marketing va logistik boshqaruv; elektron hujjat almashinishi; elektron tijorat tizimida axborot xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari; elektron tijorat yuritishning andozalari; elektron tijoratda axborot almashinuv jarayonlari, administrator serverini boshqarish; elektron tijorat tizimining umumiy tasnifi va tuzilmasi; ma'lumotlar bazasi va uni boshqarish usullari; elektron tijoratda kredit va debit plastik kartochkalar; elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish istiqbollari; Web, Internet va biznes texnologiyalari yordamida elektron tijorat sohasiga lozim bo'lgan tizimni yaratish, tahlil qilish, dizayn ishlab chiqish; elektron biznesni modellashtirish va boshqarish; tranzaksion qayta ishlash va obyektlararo aloqa; Internet-marketing va reklama; Elektron tijorat instrumentlari; elektron tijoratda innovatsion texnologiyalar; elektron tijoratning zamonaviy infratuzilmasi; elektron tijoratda axborot texnologiyalari va texnikasini qo'llash; magnit va elektron kartochkalardan foydalanish kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tinglovchi tassarufida shakllantirishdan iborat.

Mamlakatning mustaqillikka erishishi va jamiyat uchun ratsional tarkibda tijorat yurituvchi, ya'ni axborot texnologiyalari va infratizim imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda elektron tijoratni tashkil eta oluvchi yetuk mutaxassislarni tayyorlash. Ayniqsa, jahon bo'ylab xukm surayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz davrida naqd puldan foydalanishning optimal variantlaridan biri bo'lgan plastik kredit va debit kartalarini ommaviy amalda qo'llash va uning jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan iqtisodiy samarasi nimalarda namoyon bo'lishini tinglovchilar ongiga singdirish. Mavjud barcha turdagi mahsulotlar va servis xizmatlari uchun elektron pullar orqali to'lovlarni amalga oshirish texnologiyasi,

elektron pul transaksiyasi va logistikasi haqidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat. Loyihada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda omma orasida elektron tijoratni rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan texnik, tashkiliy, meyoriy-huquqiy, dasturiy va axborot ta'minotlarni, zarur ma'lumotlarni izlash texnologiyasini, mahsulot va xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish mexanizmini yaratish va amalda qo'llash ko'nikmalarini tinglovchilarda shakllantirish muammo sifatida qaraladi.

Elektron to'lov tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash usullari

Jamiyatni axborotlashtirish hozirgi zamonning davr talabiga aylanib bormoqda. Inson faoliyatining barcha jabhalari axborotni qabul qilish va o'zlashtirish jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Rivojlanishning zamonaviy bosqichida axborot texnologiyalari jamiyatni mo'tadil taraqqiy etishiga bevosita ta'sir etuvchi ilmiy texnikaviy taraqqiyotning ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining strategig maqsadlari qatoriga biznesni rivojlantirish, uni samarali boshqaruvini ta'minlash hamda faoliyat jarayonlarini amalga oshirish xarajatlarini maksimal tejash kiradi.

Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlariga bir qator qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish bo'yicha amalga oshirilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar ishbilarmonlik muhitida ijobiy o'zgarishlarni ta'minladi. Yaratilgan bu imkoniyatlar natijasida 2000 yil bilan taqqoslaganda, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31 foizdan 54 foizgacha ko'paydi. Ushbu sohada band bo'lganlar soni shu davr ichida 2 barobardan ko'proq oshdi va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning 75,1 foizidan ko'prog'i uning ulushiga to'g'ri keladi.

Prezidentimiz tomonidan 2012-yil 16-iyul kuni imzolangan "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon bu boradagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Unga ko'ra, ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomil va 15 ta litsenziyalanadigan faoliyat turini bekor qilish belgilandi. Shu asosda litsenziyalanadigan faoliyat turlari bo'yicha bunday xarakterdagi hujjatlarni olish uchun to'lanadigan yig'imlar miqdori kamida 2 barobarga kamaytiriladi. Ayni chog'da tegishli davlat statistik, moliya, soliq hisobotlari hamda boshqa hisobot turlari bekor qilinishi va bir-birini takrorlovchi shakllarni birlashtirish evaziga shunday hisobotlar miqdori va ularni taqdim etish davriyligi belgilangan muddatlarda qisqartiriladi.

Shuningdek, ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibini soddalashtirish maqsadida, 2012-yilning 1-avgustidan boshlab noshirlik faoliyati, qurilish loyihalari ekspertizasini o'tkazish, arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini yaratish kabi faoliyat turlari uchun litsenziyalarning amal qilish muddati cheklanmagan holda berilishi belgilandi. Bunda mazkur faoliyat turlarini amalga oshirish uchun avval berilgan litsenziyalarning amal qilish muddatlari cheklanmagan, deb hisoblanadi.

Tadbirkorlarga yanada qulay sharoit yaratish maqsadida internet tarmog'ida yagona veb-sayt yaratib, unga litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari ro'yxati, litsenziya va ruxsatnomalar olish uchun talab qilinadigan hujjatlar to'g'risidagi axborot, tegishli faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziya va ruxsatnomalar olgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi doimo yangilanib boriladigan ma'lumotlarni joylashtirish belgilab qo'yildi. Bu tadbirkorlarimizning sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlardan tezkor foydalanish va xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmonda Adliya vazirligi zimmasiga ham aniq vazifalar yuklandi. Ya'ni prokuratura organlari bilan hamkorlikda hisobotlarni taqdim etish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish masalalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining so'zsiz rioya etishlari ustidan muntazam nazoratni o'rnatish, byurokratik g'ovlarni bartaraf etish va qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'riladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2012-yil 18-iyul kuni qabul qilingan “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon esa xalqaro ekspertlar tomonidan jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hali to‘liq bartaraf etilmagan bir paytda O‘zbekistonning dadil inqilobiy qadamlaridan biri, dasturilamal hujjat, deya baholanmoqda. Unda qonunchilikni takomillashtirish va ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilashga hamda tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha 2013–2014-yillarda joriy etiladigan kompleks chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Ushbu Dasturda tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shartnoma munosabatlarining bajarilishi uchun javobgarlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, mehnat munosabatlari va boshqa sohalarda aniq tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Jumladan, 2012-yil 1-avgustdan boshlab tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan 22 ta yangi norma o‘rnatildi. Unga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat ro‘yxatidan o‘tgunga qadar ustav fondini shakllantirish bo‘yicha qisman to‘lov bekor qilindi. Ayni chog‘da tadbirkorlik subyektiga nom berish haqidagi murojaati statistika organlari tomonidan 4 soat ichida ko‘rib chiqiladi. Avvalgi tartib bo‘yicha bunday murojaatlar 24 soat davomida ko‘rib chiqilar, bu esa tadbirkorning oddiygina nom olish uchun ham bir kun va undan ortiq vaqtini yo‘qotishga sabab bo‘lardi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari uchun tijorat banklarida hisobraqami ochishda imzo namunalarini notarial tasdiqlatish haqidagi talab bekor qilindi. Suv va kanalizatsiya tarmoqlariga ulanish uchun ruxsat berish to‘g‘risidagi arizalar ikki ish kuni, telefon tarmoqlariga ulanishlari esa 10 kun ichida ko‘rib chiqiladi. Ilgari tadbirkor bunday kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun rasmiy murojaat qilgandan so‘ng bir oyga qadar kutishga majbur bo‘lardi.

Joriy yilning uchinchi choragidan boshlab xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan soliq hisobotlari katta korxonalar uchun 2,3 baravarga, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun 1,7 baravarga qisqartirildi. 2014-yilning oxiriga qadar esa barcha tadbirkorlik subyektlarini soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish tizimiga o‘tkazish nazarda tutilmoqda.

Yana bir yangilik shundan iboratki, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlariga qurilishni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar berish muddatlari 2 baravarga, mazkur ruxsatnomalarni

olish bo'yicha xarajatlar 5 baravarga, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatganligi uchun to'lov miqdori kamida 20 foizga kamaytiriladi. Mulikka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish muddati esa 2013-yil 1-yanvardan boshlab 7 kunga qisqartiriladi. Xuddi shunday, bojxona tomonidan yuklarni rasmiylashtirish va tovarning kelib chiqish sertifikatini berish muddatini 3 kun qilib belgilash hamda eksport qilinadigan tovarning kelib chiqishi bo'yicha sertifikatni butun kontrakt hajmiga berish joriy etiladi. Tadbirkorlarimiz yuklarni bojxonada rasmiylashtirish jarayonlarini "bir oyna" tamoyili bo'yicha amalga oshirish, da'vo arizasi va iltimosnomalarni xo'jalik sudlariga o'z xohishlariga ko'ra, elektron shaklda yuborish huquqiga ham ega bo'ladilar.

2014-yilning 1-yanvaridan e'tiboran, tadbirkorlik subyektlarini internet tarmog'i orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda, davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi yaratiladi. Bunda ro'yxatga olingan ta'sis hujjatlari hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomaning elektron shaklda berilishi nazarda tutilmoqda.

Ma'lumki, qilmishga jazo tayinlash jinoyat qonunchiligining alohida institutlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy sohalaridagi jinoyatlar yuzasidan sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, yetkazilgan zararining miqdoriga alohida e'tibor qaratadi. Endilikda jinoyat ishlari bo'yicha yetkazilgan zarar miqdori ko'paytiriladi. Ya'ni ancha miqdordagi zarar eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha, ko'p miqdordagi zarar eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha, juda ko'p miqdordagi zarar besh yuz baravaridan ortiq miqdorda belgilandi. Amaldagi qonunchilik bo'yicha ancha miqdordagi zarar eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha belgilanganini nazarda tutsak, mamlakatomimizda bu sohadagi jinoiy qonunchilikni liberallashtirishda yana bir muhim qadam qo'yilganligiga amin bo'lamiz.

Shu o'rinda aytish lozimki, Adliya vazirligiga ham tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan qator vazifalar yuklatilgan bo'lib, uning ijrosi yuzasidan o'tkazilayotgan o'rganish jarayonlarida ayrim nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonun va boshqa qonun hujjatlari talablarini buzish holatlariga yo'l qo'yilayotgani aniqlandi. Jumladan, 2012-yilning 6 oyi davomida nazorat qiluvchi organlar tomonidan 114 ta tadbirkorlik subyektida noqonuniy tekshirish o'tkazilgan va 1202 ta holatda tekshirishlarni o'tkazish tartibi

buzilgan. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida huquqiy ta'sir choralari qo'llanildi. Ya'ni 67 nafar mansabdor shaxs egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 175 nafar mansabdor shaxs ma'muriy, 1458 nafari esa intizomiy javobgarlikka tortildi. Tadbirkorlar manfaatlarini ko'zlab, sudlarga 15,1 milliard so'mlik 1117 ta da'vo arizasi kiritildi.

Adliya organlari xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tomonidan o'tkazilgan tadbirlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlaridan o'z vaqtida xabardor bo'lmaslik, faoliyatni rivojlantirish uchun yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik oqibatida ishini to'xtatgan 680 nafar tadbirkorning faoliyatini tiklashga amaliy ko'mak berildi. 350 mingdan ortiq tadbirkor esa "Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi" bilan ta'minlandi. Ayni chog'da uni to'ldirish tartibiga rioya qilinishi yuzasidan ham doimiy monitoring ishlari amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini yanada soddalashtirish maqsadida tajriba tariqasida Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi inspeksiyasida "Yagona oyna" tizimi joriy etilayotganligini ham aytib o'tish joiz.

Internet to'lov muhiti tavsifi va maqsadi

Milliy matbuot markazida Respublika Markaziy banki tomonidan pul muomalasini takomillashtirish va bank plastik kartalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi.

Pul muomalasi pullarning naqd va naqdsiz ko'rinishdagi harakati bo'lib, muomala va to'lov vositasi vazifasini bajaradi, tovar va xizmatlarning aylanmasini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy jarayonlarda naqd pul aylanmasi naqdsiz pul aylanmasiga nisbatan kam bo'lsa-da, uni tashkil etish, kassa operatsiyalari, chiqarish va tashish anchayin mehnat va vaqtni talab etadi. Bank tizimiga elektron axborot texnologiyalarining kirib kelishi bu yo'nalishdagi serxarajat ishlarni yangicha tashkil etish, takomillashtirishga sharoit yaratdi. Milliy iqtisodiyotga elektron pullarning joriy etilishi va undan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi pul muomalasida naqdsiz to'lovlar ulushining ortib borishi iqtisodiyot uchun katta ahamiyatga ega ekanini isbotladi. Binobarin, mamlakatimizda ham naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish hamda banklar tomonidan mijozlarga yangi turdagi sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish choralari ko'rib borilmoqda. "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonun, davlatimiz rahbari va hukumat

tomonidan qabul qilingan qator qarorlar ijrosi bank tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini keng ko'lamda tatbiq etish orqali mamlakatimizda qisqa muddatda milliy to'lov tizimini shakllantirishga imkoniyat yaratdi. Ayni paytda barcha tijorat banklarini o'z ichiga olgan plastik kartochkalar bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan Banklararo to'lov tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, mikroprotsessorli plastik kartochkalar va to'lov terminallarini mahalliy sharoitda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu tizim xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hamda milliy va xalqaro hisob-kitoblarni aniq vaqtda amalga oshirish, pul-kredit siyosatini samarali yuritish, pul oqimlarini boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, eng muhimi bank-moliya bozori barqarorligi ta'minlanmoqda.

Bank plastik kartalari uning foydalanuvchisiga ham, uni muomalaga chiqargan bankka ham qator afzalliklar yaratdi.

Plastik karta egalari undan universal to'lov vositasi sifatida foydalanib, bugungi kunda tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni har qanday masofadan turib va istalgan vaqtda amalga oshirmoqda. Foydalanishga qulay, ishonchli bo'lgan plastik egalari o'zi bilan yirik miqdorda naqd pul olib yurishdan xalos bo'ldilar, vaqtini tejashga erishdilar.

Bank kartochka hisobvarag'ida turgan pullarga hisoblanadigan foiz ko'rinishida, soliqqa tortilmaydigan qo'shimcha daromad olmoqda. Chakana savdo, pullik xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish korxonalariga esa qog'oz pullarni sanash, saqlash, tashish kabi kassa xizmati xarajatlarini hamda ularga sarflanadigan vaqtni tejashiga sharoit yaratdi. Shuningdek, korxonalarining hisobvaraqlariga pul mablag'lari o'tkazilishi tezkorligi hisobiga savdo aylanmasi o'sdi.

Hisob-kitoblarning sog'lom mexanizmi shakllanishi, pul mablag'lari aylanishini nazorat qilib borish hisobiga pul-kredit tizimini yuritish samaradorligi oshdi va pul massasini boshqarish, muomaladagi naqd pul umumiy massasini maqbul me'yorlarda saqlab turishga olib keldi.

Savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasidagi sog'lom raqobat muhiti birmuncha jonlandi va pirvardida soliq to'lovlari hajmi ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda respublikamiz bo'yicha 12,4 mln donadan ortiq plastik karta muomalaga chiqarilgan. Savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga 149 mingdan oshiq to'lov terminallari o'rnatilgan. Plastik kartalar vositasida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami va infrastrukturasi kengayishi transaksional hajmida ham aks etmoqda.

Joriy yilning o'tgan olti oyi mobaynida bank kartalari vositasida amalga oshirilgan transaksiyalar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 foiz ko'p bo'ldi.

Banklar amaliyotiga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi yangi aloqa vositalari – Internet va mobil telefondan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Hozirgi paytda 57,5 mingdan ortiq mijoz internet-banking, salkam 363 ming mijoz mobil-banking xizmatidan foydalanmoqda. Zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar safining o'sishi yangi bank mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirib borishni taqozo etmoqda.

Banklar har qanday zamonaviy kompyuter va telefonlarga o'rnatilgan html va wap-brauzerlar orqali mijozlarga to'la xizmatlar paketini taqdim etmoqda. Ular kechayu kunduz o'z hisobraqamlarini kuzatib borish imkoniyatiga egalar.

Ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan Markaziy bank tomonidan respublikada elektron tijoratni yanada rivojlantirish va rag'batlantirishni ko'zda tutuvchi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi.

Ma'lumki, bugungi kunda jahonning yirik savdo kompaniyalari an'anaviy savdo usullaridan foydalanish bilan birga elektron tijoratdan ham keng foydalanmoqdalar. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda dunyo aholisining 10 foizi xaridlarni internet tarmog'i orqali amalga oshirmoqda va bu raqam kundan kunga o'sib bormoqda. Ushbu hujjat tadbirkorlikni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda qo'shimcha sharoitlar, shu jumladan xalqaro standartlarga javob beradigan texnologik bozor infrastrukturasi yaratilishini ta'minlaydi.

Yangi qonun, shubhasiz, tovar va xizmatlar bo'yicha to'lovlar aylanmasi – pul aylanmasini tezlashtirish va uning muomalasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Internet to'lov muhiti to'lovlarni tashkillashtirish

Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni hamda «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori tadbirkorlik rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Har ikki hujjatda belgilangan yangi imtiyoz va tartiblar haqida mamlakat bank tizimi

mas'ullari, manfaatdor idora va tashkilotlar xodimlari – kichik biznes subyektlari vakillari hamda ishbilarmonlarga ma'lumotlar berishdi.

– Beshta tamoyil asosida barqaror rivojlanayotgan mamlakatimiz iqtisodida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi, – deydi Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi a'zosi, senator Rahima Qo'rg'onova. – Aynan ushbu sohada muayyan qonunchilik bazasi shakllantirildi. Xususan, jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiyoti uchun mutlaqo yangi 9 ta qonun qabul qilingani, amaldagi 24 ta qonunga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgani ham yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining emin-erkin faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'lmoqda. Bu esa tadbirkorlarning xalqaro miqyosda samarali va ishonchli faoliyatini kafolatlaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, biznesni yuritishning jahon amaliyotida qabul qilingan baholash mezonlarini joriy etish, shu asosda mamlakatning xalqaro reytingini yangi pog'onaga ko'tarish borasida izchil chora-tadbirlar yo'lga qo'yildi. Xususan, O'zbekiston bank tizimi mamlakatimizda yuqori darajadagi qulay sarmoya iqlimini yuzaga keltirish, kredit tashkilotlarining shaffofligini ta'minlash asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish shartlarini yaxshilash, ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlashda amaliyotga erkin bozor iqtisodiyoti mezonlari va talablariga to'liq javob beradigan tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Ana shunday imtiyozlardan biri – kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning yangicha tartibi bo'lib, unga muvofiq kreditlash obyektlari – mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari safiga oilaviy korxonalar va xususiy tadbirkorlar ham qo'shildi.

– Ushbu hujjatlarda mustahkamlangan me'yorlar kredit ajratish va uni qoplash muddatlarini ham o'zgartirdi, – dedi forumda Markaziy bank departamenti boshlig'i Azamat Qosimov. – Kreditlanayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olib, qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish uchun 12 oygacha kredit ajratiladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ilgari kreditlar uzaytirish huquqisiz besh yil muddatgacha berilgan bo'lsa, endilikda investitsiya kreditlari muddati Bank kengashi tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, agar aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kreditlar bir yilgacha ajratilgan bo'lsa, endilikda bunday mablag'larni berish muddati bir yarim yilgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun

aylanma mablag'larni to'ldirishga ajratilgan kreditlarni qoplash muddati 24 oygacha cho'zildi.

Kreditni rasmiylashtirish jarayonlari maksimal darajada soddalashtirildi va optimallashtirildi. Endi qarz oluvchilar bankka kredit arizasi bilan hisobraqamidagi pul mablag'lari oqimi ko'rsatilgan holda biznes rejalarini nafaqat qog'ozda, balki elektron shaklda topshirishlari kifoya. Bundan buyon bankka kredit ta'minoti ham taqdim etiladi. Bu – garov mulki yoki qimmatli qog'oz, bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati, uchinchi shaxslarning kafilligi, sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan qoplanmaslik tavakkali bo'yicha sug'urta polisi bo'lishi mumkin.

Qarz oluvchi arizasi avvalgidek 3 kun ichida ko'rib chiqiladi va kredit ko'mitasining qarori chiqariladi. Elektron tarzdagi arizaga elektron javob beriladi. Tijorat banklari tez orada tadbirkorlik subyektlari hisobraqamlaridan soliq va davlat byudjetiga o'tkazilayotgan boshqa majburiy to'lovlar undirishdan voz kechadilar.

Ayni paytda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish maqsadida tijorat banklari tomonidan mijozlar bilan hamkorlik qilishning elektron shakllarini joriy etish choralari ko'rilmoqda. Prezidentimizning mazkur farmonida belgilangan qulayliklardan yana biri shuki, endilikda banklar Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalida «Tadbirkorlik subyektining kabineti» orqali interaktiv xizmatlar ko'rsatishni boshlaydi. Ana shunday kabinet tufayli tadbirkorlar uchun o'z ofisida turib moliya, soliq, statistik va boshqa hisobotlarni taqdim etish, rasmiylashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Internet-banking tizimi orqali xizmat ko'rsatishi kengaytiriladi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar, kommunal to'lovlar, litsenziya va ruxsatnomalar uchun olinadigan davlat bojlari va yig'img'irlarini mana shu tizim orqali amalga oshirish mumkin.

Muhokama savollari

Internet to'lov muhiti xususiyatlari.

Internet to'lov muhiti tavsifi va maqsadi.

Internet to'lov muhiti to'lovlarni tashkil qilish.

9-Ma'ruza

BANK TO'LOV TIZIMLARI, SWIFT XALQARO TO'LOV TIZIMI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TO'LOV TIZIMI **Bank to'lov tizimlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori ijrosini ta'minlash borasida YaUPM tomonidan server va kommunikatsiya jihozlari, tizimiy dasturiy ta'minotlar xarid qilinib, o'rnatildi va ishga tushirildi, server va terminallar uchun amaliy dasturlar yaratildi.

Natijada, tijorat banklarining bo'limlari va filiallaridan Bosh bank ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga yetkaziladigan ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha oraliq bo'g'inlarni chiqarib tashlash hisobiga to'lovlarning o'tkazilishini tezlashtirishga erishildi.

Shu bilan birga, "On-Line" rejimida ishlovchi «Uzkart-EMV» milliy banklararo plastik kartochkalar to'lov tizimini joriy etishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarida tegishli dasturiy-apparat majmualari ishga tushirildi hamda EMV texnologiyasiga moslashgan terminallar joriy qilindi.

Bu ishlar natijasida, 2015-yil 1-dekabr holatiga respublika bo'yicha barcha tijorat banklari tomonidan onlayn rejimida ishlaydigan 8 005 936 ta bank kartalari muomalaga chiqarilishiga erishildi.

Bu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar amalga oshirish mo'ljallangan:

- muomaladagi onlayn kartalari, terminallar, infokiosklar sonini oshirish;

- Vazirlar Mahkamasining qarori bo'yicha tijorat banklarining ehtiyojlari uchun bank plastik karta tizimi uchun import qilinadigan qurilma, uskuna, dasturiy ta'minotlarini bojxona to'lovlaridan ozod qilish (hozirgi kunda mazkur qaror loyihasi kelishilmoqda);

- plastik karta tizimi uchun import shartnomalari bo'yicha xarid qilingan texnik va dasturiy vositalardan samarali foydalanishni nazorat qilish va zarur choralarni ko'rish;

- "Smart-Vista" EMV tizimida "on-line" rejimida ishlashga mo'ljallangan terminallarning sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida YaUPMning server tizimi va aloqa kanallari sifatli va uzilishsiz ishlashini monitoring qilish. Bank telekommunikatsiya tarmog'i (BTT)

Markaziy bank, tijorat banklari va iqtisodiyotning boshqa sektorlari muassasalarining yopiq korporativ tarmoqlari majmuasi shaklida yaratilgan bo'lib, birlamchi operator "O'zbektelekom" AJning telekommunikatsiya tizimlaridan va qisman, asosan zahira tariqasida, boshqa operatorlarning kanallaridan foydalanishga asoslangan.

BTT respublikaning barcha viloyat va tumanlarini qamrab olgan bo'lib, tarmoqning bog'lam jihozlari Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat markazlarining AMTS va ATSlarida, shuningdek, barcha tuman ATSlarida o'rnatilgan.

BTTning asosiy vazifalari banklararo elektron to'lovlarni o'tkazish uchun ishonchli va xavfsiz transport infrastrukturasi va yopiq virtual korporativ tarmoqlarni yaratish, banklararo elektron pochta tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlash hamda tarmoq abonentlari uchun alohida kanallarni ajratishdan iborat.

Bank texnologiyalarini takomillashib borishi, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini paydo bo'lishi, shuningdek, "O'zbektelekom" AJning transport infrastrukturasi rivojlanishini hisobga olgan holda BTTni muntazam ravishda rivojlantirish va takomillashtirish ishlari olib boriladi. Jumladan, BTT ishga tushirilgan vaqtdan (1995–1997-yillar) beri quyidagilar amalga oshirildi:

- 2002-2003 yillarda raqamli BTTni barcha viloyat markazlarigacha rivojlantirish loyihasi amalga oshirildi.

Ushbu loyiha doirasida Toshkent shahrida tijorat banklari gavjum joylashgan hududlardagi ATSlarni hamda Markaziy bankni o'zaro bog'lovchi optik tolali aloqa liniyasi (OTAL) o'tkazilib, unga BTTning 9 dona kommutatorlari ulandi hamda 155 Mb/s tezlikdagi ATM texnologiyasi tarmog'i yaratildi.

Barcha viloyat va tuman markazlarida joylashgan tijorat banklari filiallari, Moliya vazirligi va G'aznachilik bo'linmalari, davlat soliq inspeksiyalari uchun 64Kb/s – 2 Mb/s tezliklarda raqamli BTT orqali ma'lumotlarni uzatish va Toshkentdagi Bosh idoralari bilan yuqori tezlikda ma'lumot almashish uchun imkon yaratildi.

Raqamli kanallar orqali barcha tijorat banklari va boshqa abonentlarning yuqori tezlikdagi mantiqiy korporativ tarmoqlari yaratildi. BTTning jihozlari shahar, viloyat va tuman ATSlarida joylashganidan qat'iy nazar, ularni boshqarish markazidan yagona dastur orqali boshqarish ta'minlandi.

BTT tarkibida Markaziy bankning yagona korporativ telefon tarmog‘i va video konferensiya tizimi yaratilib, ulardan barcha hududiy Bosh boshqarmalar abonent sifatida foydalanishi ta‘minlandi.

- 2008–2011-yillarda raqamli tarmoqni barcha tuman markazlarigacha yetkazishga erishildi. Natijada, past tezlikdagi analogli aloqa tizimlari, kommutatorlari va uskunalaridan voz kechish hamda banklarning tuman filiallari, tuman moliya va g‘azna bo‘limlari, soliq inspeksiyalarini yuqori tezlikdagi raqamli kanallar orqali BTTga ulash imkoniyati yaratildi.

- 2008–2009-yillarda Toshkent shahri AMTSidagi BTTning markaziy bog‘lamida Cisco7613-RSP720C-P va OTALga ulangan bog‘lamlarda Cisco ME-C3750-24TE-M marshrutizatorlari o‘rnatildi, natijada, 1GE o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan transport halqasi tashkil qilindi va 10/100/1000 Mb/s tezlikda banklarning Bosh ofislarini BTTga ulash uchun imkoniyat yaratildi. Shuningdek, abonentlarni UTP kabeli orqali ulanishini ta‘minlash uchun BTT bog‘lamlarida ZYXEL kompaniyasining G.SHDSL bis/ADSL+ kommutator-modemlari, OTAL orqali ulanishi uchun SFP portlarga ega bo‘lgan Ethernet kommutatorlari o‘rnatildi. Natijada, BTTda abonentlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilib, ma‘lumotlarni uzatish tezligi va ishonchlilik oshirildi.

- 2012–2014-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyat markazlarida “O‘zbektelekom” AJning filiallari bilan kelishilgan Texnik shartlar asosida OTALni o‘tkazish ishlari bajarildi. Natijada, Markaziy bankning barcha hududiy Bosh boshqarmalari BTTga OTAL orqali ulandi va yuqori tezlikda ma‘lumot almashish imkoni yaratildi.

- 2012–2015-yillarda Markaziy bankning ma‘lumotlarni saqlash tarmog‘ini takomillashtirish va yagona korporativ IP-telefon tarmog‘ining loyihalari amalga oshirildi. Natijada, bank ma‘lumotlarini saqlashda tashqi xotira sig‘imi kamligi sababli sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolar bartaraf qilindi va yaqin 4–5 yil uchun bu masala hal qilindi.

Shuningdek, Markaziy bankning mavjud bo‘lgan yagona korporativ telefon tarmog‘i va video konferensiya tizimidan foydalanish davomida turli buzilishlar kuzatilganligi, Nortel Networks kompaniyasi bankrot holatga kelganligi va Meridian rusumli ATSlar ishlab chiqarilmasligi, zahira qismlarini topish muammoligi, bu rusumdagi ATSlarni ekspluatatsiya qilish va ishga yaroqli holatini ta‘minlab turish xarajatlari oshib borayotganligini hisobga olib, Markaziy bankning yagona korporativ IP-telefon tarmog‘i loyihasi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining (hozirgi vazirlik) ijobiy xulosasi

olindi. 2014–2015-yillarda Vazirlar Mahkamasining ruxsati bo'yicha tender o'tkazilib, ma'lumotlarni saqlash tarmog'i va IP-telefon tarmog'ining loyihasi amalga oshirildi.

Markaziy bankning mavjud video konferens tizimi ma'naviy eskirganligi va aloqa paytida uzilishlar kuzatilishi sababli, BTT orqali yangi IP-telefon tizimiga asoslangan video konferens aloqa tizimini 2016-yilda barcha hududiy Bosh boshqarmalarda ishga tushirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, 2016-yilda zamonaviy talablarga mos keladigan "Ishonch telefoni" tizimini joriy qilish bo'yicha ishlar bajarilmoqda.

Zamonaviy ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari optik kabellar (OTAL) va IP transportni (Ethernet texnologiyasini) keng qo'llashga asoslanadi. Birlamchi operator "O'zbektelekom" AJ telekommunikatsiya tarmoqlari infrastrukturasi aynan shu yo'nalishda rivojlantirish ishlariga alohida ahamiyat qaratib, hozirgi kunda yuqori tezlikdagi IP transport kanallarini Toshkent shahrida, viloyat markazlari va deyarli, barcha tuman markazlarida ijaraga berishi mumkin. Yaqin kelajakda MPLS tarmog'i va L2/L3 VPN xizmatlarini ijaraga olish imkoniyati yaratiladi.

BTTni rivojlantirish loyihalarida "O'zbektelekom" AJ infrastrukturasi zamonaviy imkoniyatlari hisobga olinib, 2016–2018-yillarda quyidagilarni amalga oshirish rejalashtiriladi:

- BTTning Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi markaziy bog'lamlarining va Toshkentdagi OTALga ulangan ATSDagi bog'lamlarni o'tkazish qobiliyatini kuchaytirish. Markaziy bog'lamlarga Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi AMTSlarda bog'lamlar kiradi. Natijada, MPLS protokoli bo'yicha ma'lumotlarni uzatishni ta'minlovchi ikkinchi transport xalqasi va 1Gbit/s va 10Gbit/s portlari tashkil etiladi hamda markaziy bog'lamlardagi va OTALga ulangan kommutatorlarni rezervlash ta'minlanadi;

- BTTning Toshkent shahar qismini takomillashtirish bo'yicha OTALga ulangan shaharlararo va boshqa ATSlardagi tarmoq bog'lamlaridagi samarali multiservisli kommutator-marshrutizatorlar bilan kuchaytirilgan jihozlar asosida MPLS va IP-VRF protokollari tarmoqni yaratish. Ushbu kommutatorlar asosida mavjud 10/100/1000 Mb/s tezlikdagi shahar tarmog'ini MAN tarmog'i (shahar tarmog'i) abonentlarining MPLS tarmog'iga ulanishi uchun (kirishi uchun) imkon yaratiladi;

- viloyat va tuman markazlaridagi bog'lamlarni takomillashtirish va OTAL portlari bilan ta'minlash. Natijada, viloyat va tuman markazlarida MPLS tarmog'iga kirish tarmog'ini yaratish mumkin bo'ladi;

- hozir mavjud bo'lgan 155 Mb/s tezlikdagi ATM tarmog'ini ma'naviy eskirganligi sababli demontaj qilish;

- bank ma'lumotlari hajmini ko'payishi yo'nalishlarini va tijorat banklarining ma'lumotlarini qayta ishlovchi jamoa zaxira markazini yaratilishini hisobga olgan holda mavjud optik tolali aloqa liniyasini kengaytirish (zaruriyat bo'yicha);

- barcha viloyat markazlarida MPLS protokoli bo'yicha ma'lumotlarni 1 Gbit/s tezlikda uzatilishini ta'minlash. Natijada, MPLS tarmog'iga kirish tarmog'i yaratiladi;

- BTTning barcha shaharlardagi hamda viloyat va tuman markazlaridagi abonentlarini IP Ethernet interfeys portlari orqali tarmoqqa ulanishini ta'minlash;

- tarmoqni rivojlantirilishini hisobga olgan holda boshqarish markazini takomillashtirish;

- iqtisodiyot sektori subyektlariga ko'rsatiladigan BTT xizmatining sifati va turlarini doimiy ravishda oshirib borish.

SWIFT xalqaro to'lov tizimi

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi Markaziy bank va tijorat banklari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir mutaxassisning ish joyini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida avtomatlashtirish natijasida bank sohasidagi masalalar yuzasidan samarali yechimlarni ishlab chiqish, iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish sabablarini banklar, hududlar va butun respublika bo'yicha chuqur tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Markaziy bank va tijorat banklarida joriy etilgan Integrallashgan axborot-tahliliy tizimi (IATT) bank rahbariyati va qaror qabul qiluvchi mutaxassislarini tezkor ravishda ishonchli axborot bilan ta'minlagan holda, bank sohasining moliyaviy faoliyatini optimallashtirish bo'yicha zarur qarorlarni qabul qilishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ushbu tizim banklararo elektron to'lov tizimi, Hisob-kitob-kassa markazlarining yagona balans, tijorat banklarining yagona balans tizimlari ma'lumotlar bazalari, shuningdek, bank depozitorlarining milliy axborotlar bazasi, kredit axboroti milliy instituti va boshqa ma'lumotlar bazalaridan tashkil topgan bo'lib, u banklar va xo'jalik subyektlari faoliyati bo'yicha zarur axborot manbasi hisoblanadi.

Tizimda barcha axborot turlari dasturiy ravishda qabul qilinadi va ma'lumotlar omborida, ya'ni katta hajmdagi ma'lumotlar bazasida jamlanadi. Ushbu ma'lumotlar tijorat banklarining IATTdan bevosita xodimlarning ishtirokisiz dasturiy tarzda olinib, ma'lumotlar omboriga

jamlanishi “inson omilini” va xatolarni paydo bo‘lishi ehtimolini bartaraf etadi.

Markaziy bankning 717-sonli “Markaziy bankning IATTni boshqarish bo‘yicha” Yo‘riqnomasiga asosan Markaziy bank apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy Bosh boshqarmalari, Davlat belgisi, O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi, Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi xodimlari uchun dasturiy majmualardan foydalanish uchun ruxsat berish ishlari amalga oshirildi.

IATT tizimi tarkibidagi dasturiy majmualarning ma‘lumotlar bazasidan shakllantiriluvchi Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalari va hududiy Bosh boshqarmalar tarkibiy bo‘linmalarining yangi hisobot shakllarini yaratish, joriy qilingan hisobotlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha talablariga asosan, Axborotlashtirish Bosh markaziga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Tijorat banklarining IATTLari Markaziy bank talablari asosida yaratilgan bo‘lib, respublika bank tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha yagona muhitini tashkil etadi hamda uzluksiz faoliyat yuritishi taqazo etiladi. O‘z navbatida IATTning uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uning barcha axborot tizimlarini uzilishsiz ishlashiga bog‘liq. Shuning uchun IATT tarkibiga kiruvchi dasturiy ta‘minotlar, ma‘lumotlar bazalari va texnik vositalarini doimiy ravishda kuzatib borish talab etiladi. Axborot tizimlarining samarali ishlashini ta‘minlash maqsadida axborot-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirish loyihalari, texnik topshiriqlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri birinchi o‘rinbosarining 2015-yil 19-avgustdagi 02/5-59-sonli topshirig‘i hamda bank tizimi va Pensiya jamg‘armasi o‘rtasidagi o‘zaro ma‘lumot almashinish bo‘yicha 2014-yil 3-iyundagi 115-sonli majlis bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida tasdiqlangan Reglament va Texnologik yo‘riqnoma asosida “Pensiya” dasturiy majmuasi bilan tijorat banklari o‘zaro ma‘lumot almashinishi bo‘yicha dasturiy ta‘minot ishlab chiqildi va sinovlardan o‘tkazildi. Pensiya jamg‘armasining dasturiy va texnik jihatdan tayyorligiga qarab, dasturiy majmuani foydalanishga joriy qilish ishlari bajariladi. Shuningdek, 2016–2018-yillarda Markaziy bank apparati binolaridagi yagona lokal-hisoblash tarmog‘ini takomillashtirish, kredit axboroti milliy institutining dasturiy ta‘minotlariga tegishli o‘zgartirishlar

kiritish, Garov reestri dasturini halkaro ekspertlar tomonidan bildirilgan tavsiyalar asosida rivojlantirish rejalashtirilgan.


O‘zbekiston Respublikasi Bank to‘lov tizimlari

Banklararo to‘lov tizimi banklar o‘rtasidagi milliy valyuta (so‘m)da elektron to‘lovlarni banklarning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Banklararo to‘lov tizimining qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi qo‘yidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi: O‘zbekiston Respublikasi "O‘zbekiston Respublikasi-ning Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni (21.12.1995-y., № 154-I), O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (25.04.1996-y., № 216-I), O‘zbekiston Respublikasi “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonuni (16.12.2005-y., № O‘RQ-13), “Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (14.02.2006-y., № 1545), “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom (03.06.2013-y. № 2465), Banklararo to‘lov tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shaxsiy mulki hisoblanadi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to‘lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi. Banklararo to‘lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag‘iga ega bo‘lgan banklar va moliyaviy institutlar hisoblanadi. Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (keyingi o‘rinlarda – MB HKM) – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasining Hisob, hisobot va hisob-kitoblar boshqarmasi bo‘lib, uning vazifasiga tijorat banklarining bosh ofislariga vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko‘rsatish hamda ular o‘rtasida elektron to‘lovlarning uzluksizligini ta‘minlash kiradi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (keyingi o‘rinlarda– ABM) – amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o‘rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to‘lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta‘minlaydigan markaz. Banklararo to‘lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko‘rsatish uchun foydalanuvchi banklarning MB HKM bilan, banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlar o‘tkazish uchun esa – ABM bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

Банковская телекоммуникационная сеть



Elektron to'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo'lsa.

Soat 9-00 dan 16-00 gacha – banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlar (keyingi o'rinlarda – ETH)ni uzatish - qabul qilish - nazorat qilish vaqti.

1) Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin.

2) Jo'natishga mo'ljallangan ETH nazoratdan o'tadi, bankning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, shifrlanadi va bank telekommunikatsiya tarmog'i bo'yicha MB HKMga bundan keyingi qayta ishlashlar uchun uzatiladi.

Coat 17-00 gacha Respublika byudjeti hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tegishli hisobvaraqlariga mablag'larni o'tkazish bo'yicha ETHlarni uzatish amalga oshiriladi. Bunda soat 16-30 gacha tijorat banklari o'rtasidagi, soat 17-00 gacha esa – tijorat banklaridan Markaziy bank hamda Xalq bankiga, shuningdek, Markaziy bankdan yuborilgan ETHlarni qayta ishlanilishi yakunlanadi.

Soat 17-00 dan ABM banklarga kunning yakunlanishi va yaroqsiz (brak) deb topilgan ETHlar to'g'risida (tashabbuskor bank va benefitsiar bank bo'yicha) xabarnoma jo'natadi.

Shundan keyin ABMda "Kunning yakunlanishi" bosqichi amalga oshiriladi. MB HKMda quyidagilar "Kunning yakunlanishi" bosqichini bajarilishining shartlari hisoblanadi:


– banklardan ETHni qabul qilish vaqtining tugashi;

MB HKMga uzatilgan barcha ETH qayta ishlangan va banklarning tegishli vakillik hisobvaraqlarida aks ettirilgan bo'lishi kerak.


Banklarda "Kunning yakunlanishi" bosqichining vaqti bankning ichki to'lov tizimi qoidalariga muvofiq mustaqil ravishda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kreditni boshqarish xususiyat (parametr)laridan kelib chiqqan holda, banklararo ETHlarining o'tkazish vaqtini to'lov tizimi masalalarini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan uzaytirishi mumkin. Bu haqda tizim qatnashchilari va foydalanuvchilari ETHga ishlov berish vaqtining tugashiga bir soat qolguniga qadar kechiktirilmasdan xabardor qilinadi.

Марказий банкнинг банкларaro тўлов тизими орқали амалга оширилган транзакциялар сони



Markaziy bankning banklararo t'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi



Muhokama savollari

Bank to'lov tizimlari.

SWIFT xalqaro to'lov tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Bank to'lov tizimlari.

10-Ma'ruza

CYBERPLAT TO'LOV TIZIMI. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH, TO'LOV METODI, TEXNOLOGIYALAR

Cyber Plat to'lov tizimiga ulanish

Sizning Internet-magaziningiz vitrinaga ma'lumotlar kiritish va dizayni o'z ixtiyoringizda. CyberPlat® tizimiga ulanish uchun esa magaziningizga "Magazin - raschetov:" dasturiy ta'minotini o'rnatishingiz lozim.

Xaridorlarning to'lovlarini Magazinga yuridik shaxs sifatida ikki usulda amalga oshirish mumkin:

Magazinga xizmat ko'rsatuvchi bankka kelgusida o'tkazish sharti bilan «Platina» bankining **tranzit hisobraqamiga**.

Magazinning «Platina» bankida ochilgan **hisobraqamiga**.

Magazin tanlagan variant va savdo shartlariga qarab registratsiya qilinayotganda tayyorlanadigan hujjatlar tartibi o'zgaradi. Bankdagi hisobraqamdan foydalanilgan holda CyberPlat® tizimida xizmat ko'rsatish haqidagi shartnoma imzolanayotgandagi ta'sis hujjatlari paketi taqdim etilmaydi. Platina bankida hisobraqam ochish bank qoidalari va MB yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Quyida Magazinni tranzit hisobraqamdan foydalanadigan variant bilan registratsiya qilish tartibi keltirilmoqda.

Registratsiya formasini to'ldirish

Tizim menedjerlaridan elektron pochta orqali registratsion ma'lumotlar bilan to'ldirgan quyidagi hujjatlar matnini olish:

– Yuridik shaxsga CyberPlat® tizimida elektron magazin sifatida hisob-kitob xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma.

– Elektron hujjat aylanishdan foydalanish va elektron raqamli imzoni (ERI) tan olish haqida kelishuv.

Tashkilot o'z elektron magazinida sotadigan mahsulot va xizmat turlar (nomenklatura).

CyberPlat® tizimida kafolat summasi miqdorini hisoblash uchun kafolat stavkalari foyizlari jadvali № 1.

CyberPlat® tizimida BANKning xizmat haqi stavkalari foyizlari jadvali № 2. (V2S).

CyberPlat® tizimida elektron magazinga xizmat ko'rsatish tariflari (V2S). CyberPlat® tizimida tashkilotning elektron magaziga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolanayotganida yuridik shaxs Bank hujjatlar paketi taqdim etadi.

Ma'lumot yuborilgan sanadan boshlab 30 kun ichida «CYBERPLAT» ofisiga kelishi yoki pochta orqali jo'natishi lozim. Agar mijoz biror sababga ko'ra o'zi tomonidan imzolangan shartnoma bilan kompaniya ofisiga kela olmasa u «CYBERPLAT» kompaniyasi menejeri bilan bog'lanib yangi shartnoma olishi kerak.

Imzolanib muhr bilan tasdiqlangan 2chi punktda ko'rsatilgan hujjatlar hamda ta'sis hujjatlarini taqdim etish.

Bank tomonidan tasdiqlangan hujjatlarni olish. Bankdan "Magazin-raschetov" dasturiy ta'minotini olish uchun texnik mutaxassislarning elektron adreseni olish.

Olingan dasturiy ta'minotni installyatsiya qilinganidan, klyuchlarni generatsiya qilinganidan va sinovdan (testdan) o'tganidan so'ng "elektron magazinni CyberPlat® tizimiga ulanishi bo'yicha bajarilgan ishlar haqida dalolatnoma" va "Elektron raqamli imzo uchun ochiq kaliti berilgani haqida dalolatnoma" tuziladi.

CyberPlat® tizimiga ulanishning bunday tartibi Sizga quyidagilarni ta'minlaydi:

- to'liq konfidensiallikni;
- hisobraqamlarni boshqarishga sanksiyalanmagan ruhsat (dostup)dan ishonchli himoya;
- CyberPlat® tizimidagi amallarni (operatsiya) yuridik asoslanishi.

Natijada, Sizning magaziningizni bankda hisobraqam ochiladi va CyberPlat® tizimi bilan hamkorlikda ishlovchi dasturiy ta'minot o'ratiladi.

DUET TO'LOV TIZIMI. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH, TO'LOV METODI, TEXNOLOGIYALAR

DUET to'lov tizimi

Zaruriy nazariy ma'lumotlar:

Banklararo hisob-kitob kichik tizimi (noocumemacu)

Banklararo hisob-kitob kichiktizimi emissiya va ekvayering kartlari turli ishtirokchilar tomonidan amalga oshirganda kliring xabarlarini qabul qilish va qayta ishlashni shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Kliring xabarlar tasnifi

Xabarlar fayli tashqi hisob-kitob tizimining to'lov hujjatlari turi atributiga qarab xarakterlanadi.

To'lov hujjati turi	Nomi
0	To'lov transaksionalari
1	Kvitansiyalar
2	To'lov haqida xabarnoma (kredit/debet)
3	To'lov topshiriqnomasi
4	Administrativ xabarlar

Xabarlar fayli sertifikatlardan foydalanish qoidalari va mijoz hisob raqamiga ta'sir xarakterini aniqlovchi "Qayta ishlash turi" atributiga qarab xarakterlanadi.

Xabarlarini qayta ishlash turlari	Xarakteristika
223	Mijoz hisobraqamidan sertifikatlarni tekshirib mablag' yechish
224	Mijoz hisobraqamidan operatsiya amalga oshirilmaydi (provodka vakillik hisob ramaidan)
225	Mijoz hisobraqamidan sertifikatlarni tekshirmay mablag' yechish
226	To'lov topshiriqnomalarni qayta ishlash

Xabarlarini shakllantirish qoidalari

Chiquvchi xabarlar

Chiquvchi xabarlar uchun "Hujjat turi" va "Qayta ishlash turi" atributlari quyidagi qoidalarga ko'ra beriladi.

Operatsiya	To'lov hujjati turi	Qayta ishlash turi
21 – hisobraqam ochmay boshqa bankga o'tkazish	3	226
31 – Boshqa qatnashchi MK sidan xarajat	2	223
33 – Boshqa qatnashchi MK sidan kassir terminalidan naqd pul berish	2	223
71 – Boshqa qatnashchi MK sidan jismoniy shaxs hisobraqamiga mablag' ko'chirish	2	223
73 – Boshqa qatnashchi MK sidan yuridik shaxs hisobraqamiga mablag' ko'chirish	2	223
93 – Magazinda boshqa qatnashchi MK sidan to'lash	2	223
111 – Bankomatdan boshqa qatnashchi MK sidan naqd pul berish	2	223
113 – Buzilgan (sboy)da boshqa qatnashchi MK sidan naqd pul berish	2	223
116 – Buzilgan (sboy)da boshqa qatnashchi MK sidan pul o'tkazish	2	223
121 – Boshqa qatnashchiga kirim qilish	2	224

Kiruvchi xabarlar

Qatnashchi tizimida kiruvchi xabarlarni qayta ishlash natijasida tayyorlanadigan operatsiyalar kodi “Qayta ishlash turi” va “Hujjat turi” atributlariga qarab aniqlanadi.


To'lov hujjati turi	Qayta ishlash turi	Operatsiya
4	223	94 – Boshqa qatnashida yechish 115 – Debet xabarnoma
4	225	94 – Boshqa qatnashchida yechish 115 – Debet xabarnoma
5	224	103 – Kredit xabarnoma
2	226	115 – Debet AVIZO
3	226	122 – To'lov topshiriqnoma asosidagi o'tkazmani kirim qilish 103 – Kredit AVIZO

O'zaro hisob-kitob qilish asos (prinsip)lari

O'zaro hisob-kitoblar quyidagi sxemalarning biri bilan amalga ishirlilish mumkin:


O'zaro hisob-kitobning iyerarxik sxemasi

Kartochka to'lov tizimini qatnashchilari – bosh banklari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning barchasi hisob-kitob bankida ochilgan vakillik hisobraqamlardan foydalangan holda markazlashgan tarzda, banklarning filiallari o'rtasidagi hisob-kitob esa ularning bosh banki orqali amalga oshiriladi.



O'zaro hisob-kitobning birpog'onali sxemasi

Har bir emitent to'lov topshiriqnomadan foydalanib har bir ekvayer bilan mustaqil hisob-kitob qiladi ("har biri har biri bilan" sxemasi).




Tizim quyidagi keltirilgan o'zaro hisob-kitob sxemalaridan biridan foydalaniladi.

Hisob-kitob banki orqali hisob-kitob qilish (iyerarxik sxema bo'yicha hisob-kitob)

Asosiy tushunchalar

Iyerarxik sxema bo'yicha hisob-kitobni tashkil etish.

Oldin qatnashchilarning o'zaro hisob-kitob iyerarxik sxemasi tuziladi. O'zaro hisob-kitobning har bir qatnashchisi uchun xabarlar jo'natiladigan manzil uchun marshrutizatsiya unikal kodi beriladi. Marshrutizatsiya kodi o'zaro hisob-kitob qatnashchisining kodi uning yuqori tashkiloti kodini o'z ichiga olishi tavsiya etiladi. Misol uchun: kliring markazi kodi – 01, quyi bank kodi 01+xx (0101, 0102, 0103 va h.k),



bank filiali kodi bank kodi+yy
(010101, 010201, 010301 va h.k).
So'ngra o'zaro hisob-kitob qatnash-
chilari va katrochka tizimi qatnash-
chilarini bag'lash (privyazka) baja-
riladi.

Iyerarxik sxema bo'yicha hisob-kitob *quyidagi tartibda amalga oshiriladi*:

Ekvayer bankida qatnashchilar – emitetlar manziliga yuboriladigan xabarnoma shaklida tayyorlangan "begona" transaksiyalar paketi shakllantiriladi;

Xabarnoma o'zaro hisob-kitob qatnashchisining yuqori tashkilotiga yuborildi;

Qabul qilingan xabarnomalar qatnashchining yuqori tashkiloti ma'lumotlar ombori (bazasi)ga kiritiladi va marshrutizatsiya sxemasiga asosan emitentga jo'natiladi;

Emitent bankida qabulqilingan tranzatsiyalar qayta ishlanadi, bunda transaksiyalarning elektron sertifikatlari to'g'riligi tekshiriladi, mijoz hisobraqamidan transaksiya miqdori yechiladi, emitent ma'lumotlar omboriga 94 "Boshqa qatnashchida yechish" operatsiya yoziladi; Ekvayer uchun taqdim etilgan transaksiya avtorizatsiyadan o'tganini tasdiqlovchi kvitansiya shakllantiriladi;

Kvitansiya xabarnoma ko'rinishda tayyorlanadi va uni qayta ishlash hamda marshrutizatsiya sxemasiga asosan ekvayer bankiga jo'natish uchun o'zaro hisob-kitob qatnashchisining yuqori tashkilotiga yuboriladi; Kliring markazida o'ratilgan vaqtda banklar (ekvayer va emitentlarning bosh qatnashchilari) o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish sessiyasi amalga oshiriladi, natijada, tashqi to'lov tizimiga yuboriladigan to'lov hujjati shakllanadi. Kliring hujjatlarini shakllantirish faqat tasdiqlangan to'lov ammallari asosida amalga oshiradi;

Bu hujjatlar bajarilib va ularning o'tkazilgani haqida ma'lumot olingandan kegin kliring markazida ikkita xabarnoma tayyorlanadi: birinchisi ekvayerga, ikkinchisi esa emitentga;

Qabul qilingan xabarnomalar qayta ishlanadi, natijada, jurnal operatsionnogo dnya ekvayerning amaliyot kuni jurnaliga kreditli avizo, emitenta jurnaliga esa – debetli avizo yoziladi;

Kreditli xabarnomani qabul qilinganidan so'ng ekvayerda to'lov uchun yuborilgan "begona" transaksiyalar "To'langan" holatini oladi;

Debetovli xabarnomani qabul qilganidan so'ng emitentda qabul qilingan avtorlashtirilgan transaksiyalar "To'langan" holatini oladi.

Banklararo hisob-kitob tizimi xabarlashuv fayllari

DUET tizimida banklararo hisob-kitob 3- hil rejimda amalga oshirilishi mumkin:

- Tashqi tizimlar orqali hisob-kitob;
- DUET kliring orqali hisob-kitob;
- Bir pog'onali hisob-kitob.

Tashqi tizimlar orqali hisob-kitobda banklararo hisob-kitobning ikki tur fayllaridan foydalaniladi:

- Rossiya Sberbanki hisob-kitob tizimida hujjatlar yuborish uchun foydalaniladigan dbf-fayllari;
- Rossiya Sberbanki filiallararo hisob-kitob tizimida elektron hujjataylanishi va elektron to'lov hujjatlari hamda xizmat-ma'lumot hujjatlari bilan almashinish tizimining transport fayllari. Transport fayllari formati "SBRF3" nom bilan nomlanadi.

DUET kliring va bir pog'onali hisob-kitoblar uch usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Ma'lumotlarni DUET tizimi formati fayllari ko'rinishda yuborish;
- Ma'lumotlarni DUET tizimi formatida e-mail orqali yuborish;
